YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 5-fevral № 3-4 (8022)

NIYATI ULUG‘ XALQNING – ISHI HAM ULUG‘, HAYOTI YORUG‘ VA KELAJAGI FAROVON BO‘LADI

SHAVKAT MIRZIYOYEV

HAMKORLIKDA YANGI BOSQICH

Bugun O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida mustahkam hamkorlik shakllanganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an o‘rtasidagi samimiy do‘stlik va yuksak darajadagi siyosiy ishonch ikki mamlakat aloqalarini sifat jihatidan yangi bosqichga – Keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga olib chiqdi.

O‘zbekiston Prezidentining kuni kecha Turkiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi ushbu do‘stlik va sheriklik solnomasida yangi sahifa ochdi. Tashrif Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashining navbatdagi yig‘ilishi bilan ahamiyatli bo‘ldi. Ushbu tashrif doirasida imzolangan hujjatlar va kelishuvlar nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilaydi, balki mintaqaviy xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalarida ham ikki tomonlama pozitsiyalarni mustahkamlaydi.

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi aloqalarning yuragi bu ikki qardosh xalqning ma’naviy birligidir. Ta’lim va ilm-fan sohasidagi almashinuvlar, Turkiyaning yetakchi oliygohlari filiallarining yurtimizda ochilishi, shuningdek, madaniyat kunlari va kinofestivallar xalqlarimizni yanada jipslashtirmoqda. Madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratilgan. Bu yo‘nalishdagi hamkorlikning kengayishi va chuqurlashishi madaniyatlarning o‘zaro boyitilishiga va umumiy madaniy-gumanitar makonning shakllanishiga hissa qo‘shadi.

Turkiya vakillari Samarqandda o‘tkazib kelinayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalida muntazam ravishda ishtirok etadi. “Xiva – turk dunyosining madaniy poytaxti” xalqaro dasturi doirasida Turkiyada Muhammad Xorazmiy haykali o‘rnatildi, yodgorlik majmuasi ochildi. Buxoro davlat tibbiyot institutida Turkiya tibbiyot fanlari universiteti bilan hamkorlikda yangi fakultet tashkil etildi, Toshkentda Turkiya iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining filiali ish boshladi. Kinematografiya sohasida ikki tomonlama hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Birgalikda ishlab chiqarilgan “Mendirman Jaloliddin” tarixiy seriali tomoshabinlar e’tiborini qozondi.

Tashqi iqtisodiy, madaniy va gumanitar aloqalarni mustahkamlashning rag‘batlantiruvchi omillaridan biri bo‘lgan turizm sohasi Toshkent va Anqarada ikki iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashning ishonchli omili sifatida qaraladi. Turk mutaxassislari O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda ishtirok etmoqda. Turkiya fuqarolari yurtimizning madaniy va tarixiy joylariga katta qiziqish bilan qaraydi.

Prezidentimizning Turkiyaga tashrifi kun tartibidan joy olgan yangi kooperatsiya loyihalari portfeli



O‘zbekiston sanoatini modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Innovatsiyalar, yashil energetika va yuqori texnologiyalar sohalaridagi kelishuvlar ikki mamlakat iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshiradi. Bundan tashqari, Turkiya tomoni bilan mahalliy xomashyo asosida zamonaviy dori vositalari va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, O‘zbekiston paxtasini to‘liq qayta ishlash va tayyor brend mahsulotlari bilan jahon bozoriga birgalikda chiqish ham rejalashtirilgan.

Xulosa qilib aytganda, oliy darajadagi mazkur tashrif ikki davlat o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni sifat jihatidan mutlaqo yangi darajaga ko‘taradi. Bu nafaqat siyosiy va iqtisodiy kelishuvlar majmui, balki ikki qardosh xalq hamda mintaqa farovonligi yo‘lida xizmat qiladigan muhim siyosiy voqea bo‘lib tarixda qoladi. Toshkent va Anqaraning birligi – mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam kafolatidir.

Jamoliddin BADALOV.
Material “Jadid” gazetasining 2026-yil 30-yanvardagi 5-sonidan olindi.

El SUYGAN OLTITA XALQ ARTISTI BIR SAHNADA

O‘zbekistonimiz bo‘ylab davom etayotgan “Madaniyat karvoni” loyihasi doirasida poytaxtimizdagi teatrlar, filarmoniya, sirk jamoalari, xizmat ko‘rsatgan maqom va estrada ansambllarining tuman va shaharlarga gastrol safarlari davom etmoqda. Bu loyihalar asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrda qabul qilingan “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 399-sonli qarori asosida tashkil etilmoqda.



Shu munosabat bilan O‘zbek Milliy akademik drama teatri san’atkorlari 3–7-fevral kunlari Toshkent viloyati bo‘ylab gastrol safarida bo‘lib, tomoshabinlarga o‘zlarining boy va rang-barang repertuarlarini namoyish etmoqda. Bekobod tumani Madaniyat markazida bo‘lib o‘tgan uchrashuv ham mazmunan serqirra, ijodiy jihatdan yuksak saviyada o‘tdi.

Tadbirda O‘zbekiston, Tojikiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Yodgor Sa’diyev, O‘zbekiston xalq artistlari Erkin Komilov, Saida Rametova, Tesha Mo‘minov, Zuxra Ashurova, Toxir Saidov, shuningdek, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Ra’no Yarashova, Lola Eltoyeva, Marat Azimov hamda taniqli aktyorlar Sharofiddin Muzropov va Hamza Hasanov ishtirok etib, sahnadagi yuksak mahorati bilan tomoshabinlar e’tiborini qozondi.

Jonli ijrolar, ta’sirchan sahna ko‘rinishlari va dilga yaqin kuy-qo‘shiqlar tadbirga alohida ruh bag‘ishlab, zalni iliq his-tuyg‘ular bilan to‘ldirdi. Bekobodliklarning san’atkorlarni samimiy kutib olishi, ijodkorlar bilan ochiq va do‘stona muloqotlar, ayniqsa yoshlarning san’atga bo‘lgan qiziqishi ushbu uchrashuvning ahamiyatini yanada oshirdi.

Otaxon teatrimizning ijodiy jamoasi bilan bo‘lgan bu yodda qolarli uchrashuv ishtirokchilar qalbini ilhomlantirdi, tafakkurini boyitdi va ularni ezgu g‘oyalar atrofida birlashtirdi.

Tadbir so‘ngida Bekobod tumani hokimi Z.Nizomiddinov bekobodliklar nomidan ushbu unutilmas uchrashuv uchun teatr jamoasiga minnatdorlik bildirdi va “Madaniyat karvoni” doirasida bunday tadbirlarning bardavom bo‘lishi haqida so‘zladi. Shu o‘rinda teatr direktori Yodgor Sa’diyev mart–aprel oylarida bo‘ladigan eng nufuzli spektakl tomoshasiga 500 nafar bekobodlikni maxsus taklif qilgani gulduros qarsaklar bilan kutib olindi.

Shu kuni bekobodlik san’atsevarlar teatr bilan uchrashuvdan, o‘zbek san’atining yetuk namoyandalari bilan jonli muloqotdan olam-olam zavq va unutilmas taassurotlar bilan qaytdilar.

Nurali JALILOV

ODAMLAR XOTIRJAM, TINCH YASHASHI UCHUN XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHIMIZ, JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHIMIZ KERAK

SHAVKAT MIRZIYOYEV

HUQUQ-TARTIBOT IDORALARINING FAOLIYATI TANQIDIY KO'RIB CHIQILIB, JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SOHASIDA YANGI VAZIFALAR BELGILAB BERILDI

Joriy yil 27-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Toshkent shahrida xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha namunaviy amaliyotni yaratish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Toshkent shahri respublikaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy markazi sifatidagi o'rnini yanada mustahkamlaganini, bir so'z bilan aytganda, poytaxtda iqtisodiy rivojlanish darajasi sezilarli oshganini ta'kidladi. Shu bilan birga, qayerda hayot yaxshilansa, daromad ko'paysa, o'sha yerda "yengil pul topish" harakatida bo'lgan jinoiy tuzilmalar ham faollashib, jinoyatning yangi usul va vositalari ham, eng avvalo, shu yerda paydo bo'ladi. Lekin huquq-tartibot tizimi poytaxtdagi yangiliklarga mos ishlamayotgani ko'rsatib o'tildi. Poytaxtning huquq-tartibot idoralari rahbarlari respublikaga namuna bo'lmayotgani, buning uchun poytaxtda resurs ham, kuch-vositalar ham, ilmiy salohiyat ham yetarli bo'lishiga qaramasdan, haligacha eski "qolip"dan chiqib keta olmayotgani tanqid qilindi.

Har qanday huquqbuzarlikning oldini olishda asosiy bo'g'in – mahalla profilaktikasi. Biroq Toshkent shahridagi profilaktika xizmatlarining ishi to'g'ri tashkil etilmagani uchun muammolar to'planib qolgani qayd etildi. Yirik bozorlar va gavjum joylarda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha gvardiya, ichki ishlar va favqulodda vaziyatlar idoralarining hamkorligi yetarli emasligi ko'rsatib o'tildi. Ichki ishlar vazirining axborot texnologiyalariga mas'ul o'rinbosarining tizimni raqamlashtirish bo'yicha ishlarida hali sezilarli natija ko'rinmayotgani tanqid qilindi. Vazirlikdagi kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasining ishi sustligi qayd etildi.

Prezidentimiz narkojinoyatchilik va uyushgan guruhlarga qarshi kurash bo'yicha narkokanallarning oxirgi manbasi va homiylarigacha yetib borish uchun mas'ullarda qat'iyat yo'qligini tanqid qildi. Chet elga borib olib, uyushgan jinoiy guruhlar tashkil qilgan, u yerda o'zimizning fuqarolarni ham talayotgan shaxslar faoliyatiga chek qo'yishdagi sustkashliklar qayd etildi. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish va soliq ma'murchiligi bo'yicha poytaxt soliq organlarining ishi mutlaqo qoniqarsiz ekani ta'kidlandi.

Yaqinda Administratsiya va davlat idoralarida komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi yo'lga qo'yildi. Qisqa muddatda budjetga tushum, talon-toroj, moliyaviy kamchiliklar bo'yicha 53 trillion so'm va tashqi savdo operatsiyada 8 milliard dollardan ortiq qarzdorlik aniqlangani o'ta ayanchli holat ekani qayd etildi. Korrupsiyaviy sxemalar bo'yicha 4,2 trillion so'm zarar aniqlanib, 1,3 trillion so'mi undirildi, 55 nafar shaxs qamoqqa olindi.

Davlat idoralari va korxonalarida xavfsizlik uchun mas'ullar faoliyatini ham tanqidiy qayta ko'rib chiqish vaqti kelgani qayd etildi.

Mas'ul idoralar uyushgan jinoyatchilik, narkojinoyatlar, kiberjinoyatchilik va yashirin iqtisodiyot bo'yicha jilovni qo'lga olishi shartligi ko'rsatib o'tildi. Ushbu 4 ta yo'nalish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilib, jarayon birinchi navbatda Toshkent shahrida boshlanadi. Jumladan, xavfsiz muhit yaratish bo'yicha "poytaxt namunasi" joriy etiladi.

Prezidentimiz yangi tizimni Chilonzor tumani misolida tushuntirib berdi. Tumanda jamoat xavfsizligi kuch-vositalarini boshqarish yangicha tashkil qilinadi. Patrul-post, yo'l-patrul,



qo'riqlash va profilaktika xizmatlari tun-u kun 3 smenali xizmat rejimiga o'tadi. Patrul guruhlariga huquqbuzarlik to'g'risida xabar kelib tushganda, voqea joyiga 5 daqiqa ichida yetib keladigan tizim bo'ladi.

Tumandagi 5 ta ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rinbosarlari tungi xizmatni bevosita mahallalarda tashkil qiladi. Ular tungi vaqtda o'z boshliqlariga berilgan barcha vakolatga ega bo'ladi, mustaqil qaror qabul qiladi va mas'uliyatni ham to'liq zimmasiga oladi.

Ichki ishlar va Milliy gvardiya xodimlariga tungi xizmatining har soatiga bazaviy hisoblashning 5 foizi miqdorida kompensatsiya to'lanishi belgilandi.

Ilg'or tajriba asosida aholi gavjum joylarda dron yordamida patrullik kuzatuvi yo'lga qo'yiladi.

Chilonzor tumani ichki ishlar xodimlari sohasi va hududidan qat'i nazar, fuqaro murojaatini qabul qiladi, ko'chada formali xodimga qilingan murojaat "102"ga xabar bergan bilan teng bo'ladi.

Tumandagi barcha 55 ta mahalladagi profilaktika inspektorining xizmat xonasi eshigi u bilan tezkor bog'lanish uchun aloqa tugmasi bilan jihozlanadi. Ya'ni profilaktika inspektori qayerda bo'lmasin, aholi uni qo'l telefoni va planshetiga tun-u kun bog'lanishi mumkin bo'ladi.

Davlatimiz rahbari narkojinoyatlarga qarshi kurash masalasiga alohida to'xtaldi. Sintetik narkotiklarning 95 foizi internet orqali tarqatilib, to'lov kriptovalyutada bo'layotgani, narkolaboratoriyalar mamlakat ichida ochilayotgani qayd etildi.

Shuningdek, qonunchilikda davlat organlarining bu boradagi vazifalari ham aniq ko'rsatilmagan. Narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligi faqat tahlil va xalqaro hamkorlik bilan cheklanib qolgani tanqid qilindi. Endilikda agentlikning mas'uliyati kuchaytirilib, unga mutasaddi idoralar ishini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va baho berish vakolati beriladi.

Mutasaddilarga transchegaraviy va virtual maydonda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha yaxlit tizimni yo'lga qo'yish topshirildi. Ichki ishlar vazirligida uyushgan jinoyatchilik bo'yicha alohida xizmat tashkil qilinadi.

O'tgan yili poytaxtda ushlangan uyushgan jinoiy guruhlar tarkibida 259 nafar "og'ir" toifadagi yoshlar va sportchilar bo'lgani o'ta tashvishli hol ekani qayd etildi. Sportchilarning aksariyati ko'cha bezorisiga aylanib ketayotgani, joylarda pul uchun yashirin janglar tashkil qilish holatlari ko'paygani qayd etildi. Mutasaddilarga bu yo'nalishda nazoratni ta'minlash, jangovar sport turlari bilan shug'ullanayotgan yoshlarni kasbga o'qitib, salohiyatiga mos ish bilan band qilish tizimini yaratish topshirildi.

Bugun turli radikal va ekstremistik g'oyalar axborot texnologiyalari orqali yoshlarimiz ongini zaharlashga urinyapti. Faqat jazo va taqiq bilan bu muammoni hal qilib bo'lmasligi ta'kidlandi. Bundan buyon poytaxtning har bir tumanida "Qaytaruv guruhlari" faoliyati doimiy asosda tashkil qilinadi.

Kiberjinoyatlar kundan kunga ko'payib, uning turlari 18 tadan 62 taga chiqdi. Ayniqsa, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash, sun'iy intellekt orqali ovoz va yuz qiyofasini o'xshatish, zararli fayllarni tarqatish avj olyapti. O'zlashtirilgan mablag'lar kriptovalyuta shaklida chetga chiqarilmoqda. Bularni tezkor fosh etish va to'xtatish uchun huquq-tartibot xodimlari kibertexnologiyalar va sun'iy intellektni mukammal egallashi lozimligi qayd etildi.

Shu bois, Ichki ishlar vazirligida kiberjinoyatchilik bo'yicha alohida departament tashkil qilinadi va unga vazirning o'zi mas'ul bo'ladi. Adliya vazirligida kiberjinoyatchilik va raqamli huquq bo'yicha alohida boshqarma ochiladi.

Kadrlar qo'nimsizligiga barham berish, malakali va fidoyi kadrlarni rag'batlantirish doimiy e'tiborda bo'lishi ta'kidlandi. Shu bois, profilaktika inspektorlarini yanada qo'llabquvvatlash va ularning jamiyatdagi obro'sini oshirish bo'yicha qator yangiliklar e'lon qilindi.

Jumladan, joriy yil 1-iyuldan poytaxtdagi profilaktika xodimlariga aynan shu sohada ko'p yillik staji uchun 5 million so'mgacha oylik ustama beriladi. 1-fevraldan yuridik oliygohni bitirib, ichki ishlar tizimiga ishga kirganlarga oliygohda o'qigan davri ham stajga qo'shiladi. Viloyatdan kelib, poytaxt ichki ishlar idoralarida ishlayotgan xodimlarning uy ijarasiga oylik to'lov 1,8 million so'mdan 3,1 million so'mga oshiriladi. Ichki ishlar xodimlari uchun qurilayotgan uylarning 30 foizi faqat profilaktika inspektorlariga beriladi.

Mutasaddilarga ichki ishlar organlarining aholi bilan bevosita ishlovchi, jamoat xavfsizligi va jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi tuzilmalarini yangi tizimga o'tkazish bo'yicha farmon loyihasini kiritish topshirildi. Ushbu bo'linmalar uchun xizmatni o'tash, muomala madaniyati, tezkor harakatlanish, kuch va qurol ishlatish bo'yicha yagona standartlar joriy etilib, ular servis tuzilmaga aylanishi belgilandi.

Adliya tizimini ham kuchaytirish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Bu borada birinchi qadam sifatida Adliya vazirligi tomonidan huquq-tartibot idoralarining faoliyatini "huquqiy audit"dan o'tkazish tizimi yo'lga qo'yiladi. "Huquqni muhofaza qilish faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, adliya organlarining aniq roli, yangi vazifa va vakolatlari belgilanadi.

Davlatimiz rahbari muhokama qilingan boshqa sohalarda ham mavjud qonun hujjatlarini takomillashtirish, yangilarini qabul qilish zarurligini ta'kidladi.

Faoliyatida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'ygan mas'ullarga javobgarlik choralari belgilandi, ularga nisbatan qonun ustuvorligini ta'minlash topshirildi.

Yig'ilishda huquq-tartibot idoralari rahbarlarining hisobotlari tinglandi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

MAS’ULIYAT VA MEHNAT MAYDONIDAGI FERMERLAR

Dolzarb mavzu

Yigirma birinchi asr jamiyat taraqqiyotini yangi yo‘nalishga burib yuborgani sir emas. Dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy inqirozlar, tabiiy ofatlar, oziq-ovqat tanqisligi muammosi mamlakatlarni innovatsion islohotlar qilishga majbur etmoqda. O‘zbekistonda ham bu masalaga jiddiy e’tibor berilmoqda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligini zamonaviylashtirish, tejamkor vositalardan foydalanish, agrotexnologiyalardan unumli va samarali foydalanishga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Bu masalaga davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida ham alohida urg‘u berilgani e’tirofga loyiq.



Bekobod tumanida ham qishloq xo‘jaligining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan fermer xo‘jaliklari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ish jarayonini modernizatsiya qilish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Paxta va g‘alla ekinlarini ekish, ishlov berish hamda hosilni nes-nobud qilmay yig‘ishtirib olish jarayonida fermer xo‘jaliklari bilan har tomonlama hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Bunga javoban fermerlarimiz ham davlat bilan tuzilgan shartnomalarni oshig‘i bilan bajarib kelmoqdalar.

Misol tariqasida, bir nechta fermer xo‘jaliklarini o‘rnak sifatida tilga olish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, “Boqiyeva Nazira” fermer xo‘jaligi bir necha yildan buyon shartnoma rejasini ortig‘i bilan bajarib, barchaga o‘rnak bo‘lib kelmoqda. Xo‘jalik rahbari Nazira Boqiyevani fidoyi va tashabbuskor fermer sifatida hamma taniydi. Xalq orasida “Temir xotin” nomi bilan tanilgan fermer ayol o‘z xo‘jaligini rivojlantirish, yerga mehr bilan munosabatda bo‘lish va mo‘l hosil yetishtirishni o‘zining asosiy maqsadi qilib belgilagan. Uning 84 gektar yer maydonidan iborat fermer xo‘jaligi 2025-yilgi hosil mavsumida g‘alla yetishtirish rejasini 149 foizga, paxta yetishtirish bo‘yicha esa 117,6 foizga bajarib, yuqori natijalarga erishdi. Bu ko‘rsatkich fermer xo‘jaligi jamoasining fidokorona mehnati va yerga ilmiy yondashuvining yaqqol namunasidir. Shuningdek, fermer xo‘jalikda 32 nafar ishsiz fuqaro mavsumiy va doimiy ish bilan ta’minlanib, ijtimoiy barqarorlikka munosib hissa qo‘shilmoqda. “Temir xotin” Nazira Boqiyevaning tumanimiz qishloq xo‘jaligi sohasi rivojiga qo‘shayotgan hissasi davlatimiz tomonidan alohida e’tirof etilib, qator davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Ushbu mukofotlar uning mashaqqatli mehnati, kuchli irodasi va namunali faoliyatining yuksak e’tirofidir.

Barqaror natijalarga erishishda mehnat, mas’uliyat va yerga oqilona munosabatda bo‘lish zarurligini anglab yetgan hamda shu tamoyillar asosida faoliyat yuritib kelayotgan fermer xo‘jaliklardan yana biri “Do‘stlik agro fayz” fermer xo‘jaligidir. Shartnoma rejasini ortig‘i bilan bajarish bu fermer xo‘jaligi uchun odatga aylangan. 2025-yilgi hosil mavsumida 40,3 gektar yer maydoniga ekilgan paxtadan 192,5 tonna hosil olinib, belgilangan reja 112,9 foizga bajarildi. 51,2 gektar yer maydoniga ekilgan g‘alladan esa 194,4 tonna hosil olinib, reja 108 foizga yetkazildi. Bu ko‘rsatkichlar fermer xo‘jaligida agrotexnik tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilgani, zamonaviy agrotexnologiyalar joriy etilib, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanilganining natijasidir.

Agrotexnik tadbirlarning o‘z vaqtida bajarilishi “Shohruhbek Shahzodbek” fermer xo‘jaligining hosil natijalarida ham o‘z aksini topmoqda. 2025-yil hosil mavsumida 25 gektar yer maydoniga ekilgan g‘alladan 182,5 tonna don olinib, reja 125 foizga, 39 gektar yer maydoniga ekilgan paxtadan esa 196,2 tonna hosil yig‘ishtirilib, reja 118,9 foizga bajarildi. “Shohruhbek Shahzodbek” fermer xo‘jaligi erishgan natijalari bilan tumanimizda ishonchli, mehnatsevar va ilg‘or fermer xo‘jaligi sifatida e’tirof etilmoqda.

Mas’uliyatli boshqaruv, yerga mehr va tinimsiz mehnat “Yusupov Obid Fayz” fermer xo‘jaligi faoliyatida ham o‘z samarasini bermoqda. 125 gektar yer maydonidan iborat fermer xo‘jaligining 64 gektari paxtachilikka, 56 gektari g‘allachilikka ixtisoslashtirilgan. Sifatli va oqilona mehnat natijasi 2025-yilgi mavsumda yaqqol namoyon bo‘ldi.

Fermer xo‘jaligi paxta yetishtirish bo‘yicha belgilangan rejani 267,7 foizga bajarib, tumanda rekord ko‘rsatkichni qayd etdi. Bunday yuksak natija fermer xo‘jaligi rahbarining tajribali boshqaruvi, jamoaning hamjihat mehnati hamda yerga ilmiy asosda yondashuvining yorqin ifodasidir. Ko‘rsatkichlari bilan tumanning ilg‘or fermerlari qatoriga qo‘shilgan rahbar mehnati davlatimiz tomonidan munosib baholanib, davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Bu mukofot uning fidoyiligi va namunali faoliyatiga berilgan yuksak bahodir.

Yuqorida tilga olingan fermer xo‘jaliklari faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, ana shunday fermerlar bor ekan, tumanimiz qishloq xo‘jaligining istiqboli yanada porloq bo‘lishiga ishonchimiz ortadi. Ammo…

Ammo o‘z faoliyatiga mas’uliyatsiz munosabatda bo‘layotgan, bildirilgan ishonchni suiiste’mol qilayotgan fermerlar ham borligini tan olmaslikning iloji yo‘q. Jumladan, Boymatov Farhod rahbarligidagi “Farhod Boymatov Agro” fermer xo‘jaligi sholi-g‘allachilik yo‘nalishida faoliyat yuritadi. 2025-yilgi mavsumda xo‘jalik rejasi bo‘yicha 49 gektar yer maydoniga sholi ekilishi belgilangan bo‘lsa-da, amalda 68 gektar yer maydoniga sholi ekilgan. Agar hosildorlik gektariga 55 sentnerdan hisoblanganda, 374 tonna hosil olinishi mumkin bo‘lgan. Bu esa bozor narxida 1 496 000 000 so‘mlik mahsulot deganidir. Eng achinarlisi, mahsulotni sotish uchun shartnoma tuzilmagan, tushum hisob-raqamga kiritilmagan. Natijada 180 000 000 so‘mlik soliq hisoblanmay qolgan. Bundan tashqari, me’yor bo‘yicha 39 ta ish o‘rni yaratilishi lozim bo‘lgan bo‘lsa, amalda soliq bazasida atigi 10 ta ish o‘rni ko‘rsatilgan. Eng yomoni, 2025-yil 31-dekabr holatiga fermer xo‘jaligining davlat solig‘idan 380 600 000 so‘m, suv solig‘idan 21 000 000 so‘m, jami 401 600 000 so‘m qarzdorligi mavjud.

“Xonobod Agro” fermer xo‘jaligi rahbari Ermatov Rustam esa 41 gektar yer maydoniga o‘zboshimchalik bilan sholi ekkan. Aslida xo‘jalik paxta-g‘allachilikka ixtisoslashgan. Bundan tashqari, 226 tonna hosil hisobotlarda aks ettirilmay, 945 000 000 so‘mlik mahsulot mablag‘lari yashirilgan. Soliqlardan qarzdorlik esa umumiy hisobda 143 700 000 so‘mni tashkil etadi.

Paxta-g‘allachilik-baliqchilikka ixtisoslashgan “Mehnatobod” fermer xo‘jaligi rahbari Juma Babayev ham 52 gektar yer maydoniga sholi ekkan. O‘rtacha hosildorlik 286 tonnani, bozor qiymati esa 1 140 000 000 so‘mni tashkil etgan bo‘lsa-da, amalda 640 000 000 so‘mlik mahsulot ko‘rsatilgan. Me’yor bo‘yicha 30 ta ish o‘rni yaratilishi lozim bo‘lgan holda, atigi 7 ta ish o‘rni yaratilgan. Bundan tashqari, umumiy hisobda 1 123 169 956 so‘m soliq qarzdorligi ham mavjud.

Paxta va g‘alla ekilishi lozim bo‘lgan yer maydonlariga sholi ekish “tajribasi” “Feruz Rajabov Fayz” hamda “Sultonov Kamoliddin” fermer xo‘jaliklarida ham kuzatilgan. Birinchisi 41 gektar, ikkinchisi esa 12 gektar yer maydoniga sholi ekkan. Yuqorida tilga olingan fermer xo‘jaliklari singari, ular ham hosil va daromadni kamaytirib ko‘rsatgan, ish o‘rinlari yaratish masalasiga loqayd munosabatda bo‘lgan. Soliq qarzdorligi esa milliard so‘m atrofida.

So‘nggi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar qishloq xo‘jaligi sohasida ham o‘z samarasini bermoqda. Ammo yuqorida qayd etilganidek, islohotlarga kimlardir ishonch va fidoyilik bilan o‘z hissasini qo‘shayotgan bo‘lsa, kimlardir faqat shaxsiy manfaatni ko‘zlamoqda. Ta’kidlab o‘tish lozimki, gazetaning ushbu sonidan boshlab faoliyatida sustkashlik va mas’uliyatsizlik kuzatilgan fermer xo‘jaliklari yoritib boriladi. Zero, eskilarning bir naqli bor: “Yerga bersang — boy qiladi, yerni ursang — voy qiladi.”

Madamin BOYMATOV

Jarayon



HOKIM VA YOSHLAR UCHRASHUVI

So‘nggi yillardagi islohotlar jarayonida yoshlar bilan tizimli ishlash, ularning muammo va takliflarini o‘rganish, bandligini ta’minlash hamda bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Bekobod tumani hokimi Z.Nizomiddinov va tuman IIB boshlig‘i S.Ergashxo‘djayevlarning yoshlar bilan o‘tkazgan uchrashuvining asosiy mavzusi ham shu bo‘ldi.

Ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvda yoshlarning fikr-mulohazalari, maqsadlari va mavjud muammolari tinglandi. Shuningdek, ularning turli sohalarda o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yishi, bandligini ta’minlash va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash masalalari ham muhokama qilindi.

Tuman hokimi uchrashuv davomida mamlakatimizda yoshlar siyosati borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning kompleks tizimi shakllantirilganini ta’kidladi. Bilimli, keng dunyoqarashga ega, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini qayd etib, yoshlarning qobiliyat va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlar yaratilayotganini alohida urg‘uladi.

Shuningdek, yoshlar mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanishga, ilm-fan va kasb-hunar sirlarini puxta egallashga chaqirildi.

XALQ FAROVONLIGI YO‘LIDA MUHIM DASTUR



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasiga bag‘ishlangan targ‘ibot tadbirlari davom etmoqda. Navbatdagi tadbir Bekobod tumani “Terakzor” mahallasida bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda Bekobod tumani hokimi o‘rinbosarlari Dilshod Mirzaqulov va Zafarxo‘ja Tursunov ishtirok etib, Murojaatnomada belgilangan ustuvor vazifalar, keng ko‘lamli islohotlarning asosiy yo‘nalishlari hamda aholi farovonligini oshirishga qaratilgan maqsad va vazifalar haqida atroflicha ma’lumot berdilar.

Samimiy va ochiq muloqot tarzida o‘tgan uchrashuvda fuqarolarning dolzarb savollari muhokama qilinib, mahalla hayotiga oid muammo va takliflar tinglandi hamda ular yuzasidan tegishli tushuntirishlar berildi.

Shohida TO‘RAQULOVA,
Xalq deputatlari
Bekobod tumani
Kengashi deputati

Xushxabar

XALQARO ILMIY HAMKORLIK — MUHIM NATIJA

Bekobod tuman 1-son texnikumining fidoyi pedagoglari — maxsus fan o‘qituvchisi Xoldarova Ma’mura hamda ingliz tili fani o‘qituvchisi Abdurasulova Munojat xalqaro ilmiy hamkorlik doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalari bilan Hindiston Respublikasida o‘tkazilgan “New Modern Researches, Modern Proposals and Solutions” nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muvaffaqiyatli ishtirok etdilar. Ularning ilmiy ishlari konferensiya materiallari to‘plamida chop etildi.

Mazkur ilmiy tadqiqotlar ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish, ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish hamda pedagoglarning ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu yutuq texnikumda ilmiy-metodik faoliyat izchil rivojlanib borayotganining, pedagoglarning xalqaro miqyosdagi faolligi va tashabbuskorligining yaqqol dalilidir.

Pedagoglarimizni ushbu munosib yutuq bilan samimiy tabriklab, kelgusida yanada yuksak ilmiy marralarni zabt etishlariga tilakdoshmiz!

Madamin BOYMATOV

Ko‘rik-tanlov

KITOB – TAFAKKUR QANOTI



“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida tashkil etilgan “Yosh kitobxon” ko‘rik-tanlovi yoshlarning kitobga bo‘lgan muhabbatini oshirish, mutolaa madaniyatini targ‘ib qilish hamda intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Kuni kecha tanlovning tuman bosqichi nihoyasiga yetdi.

Qizg‘in va murosasiz bahslarga sabab bo‘lgan jarayon davomida eng faol, bilimdon va kitobsevar yoshlar aniqlandi. Tuman bosqichi g‘oliblari viloyat bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritib, o‘z bilim va salohiyatini keyingi bosqichda namoyon etish imkoniga ega bo‘ldi.

O‘z muxbirimiz

Adliya xabari

KITOB YOZGAN HAM, CHIQARGAN HAM, O‘QIGAN HAM RAG‘BAT OLADI

Bolalarni kitob o‘qishga majburlash kerakmi? Mualliflar uchun jozibador takliflar qanday? Yangi kutubxonalardan yangicha kitob festivallarigacha – odamlar orasida kitobxonlik madaniyatini oshirish uchun nimalar qilish kerak? “Sayilgoh” podkastida dolzarb mavzu muhokama qilindi.

Hukm

MODDIY YORDAM BERMAGAN OTA JAZOLANDI

Har bir bola ota-onasidan g‘amxo‘rlik va moddiy yordam kutadi. Afsuski, ba’zi ota-onalar bu majburiyatni bajarmay, farzandlariga yetarli moddiy ta’minot bermaydi. Bunday vaziyatlar nafaqat oilaviy tushunmovchiliklarga, balki qonuniy oqibatlarga ham olib keladi. Quyidagi holat bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

1985-yil Bekobod tumanida tug‘ilgan Iqbolov Avaz turmush o‘rtog‘i bilan ajrashgach, Fuqarolik ishlari bo‘yicha Bekobod tumanlararo sudining 2020-yil 26-noyabrdagi qaroriga binoan, bir nafar voyaga yetmagan farzandining moddiy ta’minoti uchun har oy topgan daromadining 1/4 qismini to‘lab borishi majburiy edi. Biroq, A.Iqbolov 2020-yil 5-noyabrdan 2024-yil 1-noyabrgacha jami 51 045 351 so‘m miqdoridagi alimentni to‘lamadi. Shu sababli, Jinoyat ishlari bo‘yicha Bekobod tuman sudi 2024-yil 23-noyabrda unga ma’muriy javobgarlik tayinlab, 15 sutkaga qamoq jazosi belgiladi. Ammo fuqaro bundan xulosa chiqarmay, 2024-yil 1-noyabrdan 2025-yil 1-sentyabrgacha yana 15 920 397,5 so‘m, jami 66 966 048 so‘m alimentni to‘lamay kelgan.

Shu sababli, 2025-yil 23-dekabr kuni Bekobod tuman sudi Iqbolov Avazni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 122-moddasi 1-qismi bilan aybdor deb topdi va unga 1 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinladi. Jazoni manzil koloniya sharoitida o‘tash va uning 2025-yil 9-dekabrdan boshlab hisoblanishi belgilandi. Shu bilan birga, sudlanuvchidan jabrlanuvchi foydasiga 66 966 048 so‘m miqdoridagi aliment qarzdorligi undirildi.

Sherzod OLIMBOYEV,
Bekobod tuman prokurori
katta yordamchisi



Qonun va mas’uliyat

KREDIT MABLAG‘LARIDAN MAQSADSIZ FOYDALANISH JINOIY JAVOBGARLIKKA OLIB KELADI

Mamlakatimizda qonunchilikni yanada mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish, ayniqsa, hozirgi iqtisodiy islohotlar davrida qonun ustuvorligini ta’minlash har bir mas’ul rahbar va mutaxassisning dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda.

Respublikamiz ijtimoiy tarmoqlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida chop etilayotgan gazeta va jurnallarda qishloq xo‘jaligi subyektlari tomonidan turli banklardan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarish uchun olingan kredit mablag‘lari shaxsiy ehtiyojlarga sarflanib, talon-toroj qilinayotgan holatlar haqida ko‘plab ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Jumladan, “P.K.” xususiy korxonasi rahbari K.P. “Turonbank” ATB Termiz filialidan zamonaviy issiqxona qurish orqali limonchilik faoliyatini tashkil etish maqsadida ajratilgan 400 million so‘m kredit mablag‘ini o‘zi norasmiy ravishda rahbarlik qilib kelgan “K.B.” MCHJga soxta shartnoma asosida o‘tkazib, issiqxona tashkil etmasdan, ushbu mablag‘larni talon-toroj qilganligi aniqlangan.

Mazkur holat yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167-moddasi — o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li orqali talon-toroj qilish alomatlari bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, tegishli tartibda MCHJ rahbariga nisbatan jazo choralari qo‘llanilgan.

Shuningdek, Bekobod tumani hududida “O‘zagroinspeksiya”ning Bekobod tuman bo‘limi tomonidan 2026-yil hosili uchun 6 ta qishloq xo‘jaligi subyekti muvofiqlik sertifikatisiz, ya’ni o‘tgan yilda yetishtirilgan hosildan tovar bug‘doyni urug‘lik sifatida ekkanlik holatlari aniqlangan. Mazkur qonunbuzarlik holatlari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 104^2-moddasi asosida ma’muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib, to‘plangan materiallar qonuniy ko‘rib chiqish uchun Bekobod tuman jinoyat ishlari bo‘yicha sudiga yuborilgan.

Agar ushbu holatlarda fermer xo‘jaliklari rahbarlari tomonidan g‘alla yetishtirish uchun banklardan olingan resurs mablag‘lari, jumladan, urug‘lik uchun ajratilgan kredit mablag‘lari boshqa maqsadlarga sarflanganligi aniqlanganida, bu holat fermer xo‘jaligi rahbarlarini jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lishi mumkin edi.

Shu bilan birga, 2026-yil hosili uchun banklar tomonidan qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘lariga, mineral o‘g‘itlarga, kimyoviy vositalarga, ish haqi hamda boshqa yo‘nalishlarga ajratilgan kredit mablag‘larini rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish ham ushbu jinoyat turiga mansub bo‘lib, jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Agar mazkur holatlar mansab-mavqeini suiiste’mol qilish yo‘li bilan sodir etilgan bo‘lsa, qonunchilikka muvofiq bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima, to‘rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari, ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari, ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazolari belgilangan.

Yetkazilgan moddiy zarar to‘liq qoplangan taqdirda esa ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazo choralari qo‘llanilmaydi.

Shu munosabat bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari urug‘larini yetishtiruvchi va tarqatuvchi subyektlar rahbarlaridan mamlakatimizda amalda bo‘lgan qonunlar, qarorlar hamda belgilangan standart va me’yorlarga qat’iy amal qilishlarini so‘rab qolamiz.

Qahramon MAMATQULOV,
“O‘zagroinspeksiya”ning
Bekobod tuman bo‘limi
bosh mutaxassisi

Mutaxassis tavsiyasi

Bekobod tumani sharoitida g‘alladan yuqori hosil olish, eng avvalo, parvarish tadbirlarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirishga bog‘liq. Ayniqsa, fevral oyida g‘alla maydonlariga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

G‘ALLA HOSILDORLIGINI OSHIRISHDA PARVARISHNING AHAMIYATI

Ushbu davrda g‘alla vegetatsiyasi faollashib, ayrim zararkunandalar, jumladan, shved pashshasining tushish xavfi ortadi. Mazkur zararkunanda g‘alla nihollari va yosh poyalariga zarar yetkazib, hosildorlikning pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Buning oldini olish uchun Bekobod tumani g‘alla maydonlarida doimiy fitosanitar kuzatuv olib borish, agrotexnik tadbirlarni belgilangan muddatlarda bajarish, oziqlantirish va sug‘orish me’yorlariga qat’iy amal qilish zarur. Zararkunanda aniqlangan hollarda mutaxassislar tavsiyasiga asosan ruxsat etilgan himoya vositalaridan foydalanish lozim.

O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining Bekobod tuman bo‘limi tomonidan fermer xo‘jaliklariga amaliy tavsiyalar berib borilmoqda. Parvarishga mas’uliyat bilan yondashish g‘alla hosildorligini oshirish va barqaror hosil olishning muhim omili hisoblanadi.

Aziz ABDUMUTALOV,
O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi
Toshkent viloyati Bekobod tumani bo‘limi
Fitosanitar nazorati davlat inspektori


SOVUQ HAVO SHAROITIDA EKINLARNI ASRASH

Sovuq havo kirib kelganda mevali bog‘ va uzumzorlarning qator oralari bo‘ylab sug‘orish ariqlari olinib, iloji boricha kam miqdorda suv oqizish tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, mevali bog‘ va uzumzorlar qator oralari bo‘ylab mahalliy o‘g‘it aralash xashak, poxol, shox-shabbalar uyumlarini to‘plab, ularni tutatish mumkin. Buning uchun mevali bog‘ va uzumzorlarda bir tekisda, eni 1,25–1,5 metr hamda balandligi 0,5–0,75 metr qilib, to‘p-to‘p uyumlar tayyorlab qo‘yish zarur.

Daraxtlarning yoshi hamda qalin yoki siyrakligiga qarab, har bir gektar maydonda 100–200 ta uyum hosil qilish kerak. Tutun bog‘ ichiga yaxshi yoyilishi uchun uyumlarni mevali bog‘ va uzumzorlarning shamol esadigan tomoniga joylashtirish hamda havo haroratini doimiy kuzatib borish lozim.

Havo ochiq bo‘lib, harorat +1°C ga tushishi bilan uyumlarni tutatish, bunda alangalanib ketmasdan, tutab yonishiga alohida e’tibor qaratish zarur. Sovuq qaytalanishini hisobga olib, uyumlarni oralatib tutatish tavsiya etiladi. Agar sovuq bo‘lmasa, ushbu uyumlardan keyinchalik o‘g‘it sifatida foydalanish mumkin. Isitilmaydigan ko‘chatxonalarda yetishtirilayotgan sabzavot va poliz ekinlari ko‘chatlarini sovuqdan asrashning muhim choralaridan biri — dugalar o‘rnatish, ustini



polietilen plyonka bilan yopish, vaqtinchalik isitish moslamalaridan foydalanish hamda atrofiga go‘ng aralash xashak, poxol va shox-shabbalar uyumlarini to‘plab, ularni tutatishdan iborat.

Issiqsevar sabzavot ekinlaridan pomidor, shirin qalampir va baqlajon ko‘chatlarini issiqxonada tayyorlash, shuningdek, bodring va poliz ekinlari urug‘larini ekishni vaqtinchalik to‘xtatib turish lozim. Sovuqqa chidamli sabzi, piyoz, sarimsoqpiyoz, osh lavlagi, karam hamda ko‘kat sabzavotlar kabi ekinlarga −2…−3°C havo harorati sezilarli darajada ta’sir etmaydi.

Farhod POYONOV,
Farruh ASQAROV,
Shohruh ESHBOYEV,
Alisher AMANXO‘JAYEV,
“OYBEK” O‘KCHM
inspektorlari

MUROJAATNOMA – TARAQQIYOTNING STRATEGIK YO‘L XARITASI



Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida davlat rahbarining Oliy Majlis va xalq oldiga murojaat bilan chiqishi siyosiy jihatdan keng qamrovli, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan muhim hujjat hisoblanadi. U bir vaqtning o‘zida hisobot, dastur, prognoz hamda mafkuraviy yo‘naltiruvchi vazifalarni bajaradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasi ham ana shunday kompleks siyosiy hujjat sifatida namoyon bo‘ldi.

Murojaatnoma davlatning o‘z fuqarolari oldidagi ochiqligi va hisobdorligini ta’minlaydigan, strategik maqsadlar bilan amaliy vazifalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beruvchi muhim siyosiy instrumentdir. Unda davlat rahbari nafaqat o‘tgan yil yakunlarini sarhisob qiladi, balki kelgusi bosqichda jamiyat oldida turgan ustuvor vazifalarni konseptual jihatdan belgilab beradi.

Prezident nutqida kambag‘allik masalasi alohida strategik ahamiyatga ega muammo sifatida ko‘rib chiqildi. Bu borada davlatimiz rahbari: “Biz kambag‘allikni qisqartirish masalasini umummilliy harakatga aylantirdik”, deya ta’kidladi. Ushbu fikr kambag‘allikka qarshi kurash faqat davlat zimmasidagi vazifa emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari — mahalla tizimi, tadbirkorlik subyektlari, nodavlat sektor hamda fuqarolarning faol hamkorligini talab etuvchi keng ko‘lamli jarayon ekanini anglatadi.

Kambag‘allikni qisqartirishning eng samarali yo‘li aholini ish bilan ta’minlash hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Murojaatnomada bandlik siyosatiga alohida e’tibor qaratildi. Prezidentimizning ma’lum qilishicha, 2025-yilda 5 million nafar aholi daromadli bo‘lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga pasaygan. Bu ko‘rsatkichlar mehnat bozorida izchil institutsional o‘zgarishlar amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Xususan, “mahallada sanoat va xizmat” loyihalari, mikroloyihalarni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar ajratish orqali aholi o‘z yashash hududida munosib ish o‘rinlariga ega bo‘lmoqda.

Davlatimiz rahbari Murojaatnomada 2026-yilda amalga oshiriladigan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berdi. Jumaladan, dasturning to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratishdir.

Hozirgi vaqtda yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun’iy intellekt ta’sirida dunyoda ish o‘rinlarining soni, shakli va mazmuni keskin o‘zgarmoqda. Yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi to‘liq avtomatlashtiriladi, 50 foizi bo‘yicha esa yangi malakalar talab qilinadi.

– Endilikda mamlakatimiz mehnat bozori mutlaqo yangi arxitektura asosida – kasb, malaka, texnologiya va ta’limni birlashtiradigan yagona mexanizm sifatida ishlashi zarur, – dedi Prezidentimiz.

2026-yildan boshlab har yili kamida 100 tadan texnikum to‘liq ta’mirlanib, texnologik va talab yuqori bo‘lgan kasblarga mos holda jihozlab boriladi. Germaniya, Shveytsariya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Koreya kabi davlatlarning ilg‘or ta’lim dasturlari joriy qilingan texnikumlar soni 100 taga yetkaziladi.

2026-yilda 7 ta viloyatda, 2027-yilda esa qolgan hududlarda Ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi va “Kasblar shaharchasi” faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Xulosa qilib aytganda, Prezident Murojaatnomasi xalq manfaatlariga xizmat qiladigan davlat barpo etish yo‘lida aniq faktlar, raqamlar va mas’uliyatli vazifalarga asoslangan muhim strategik hujjatdir. Unda belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etish har bir davlat organi, mutaxassis va mas’ul shaxsdan yuqori mas’uliyat, intizom va amaliy natijalarni talab etadi.

Sadoqat XIDIROVA,
Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi deputati,
XDP a’zosi

Deputat minbari



ENERGIYA RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH — KELAJAK RIVOJI UCHUN ZAMIN

Dunyodagi barcha mamlakatlar taraqqiyotida energiya manbalarining o‘rni beqiyosdir. Chunki ilm-fan va texnika jadal rivojlanayotgan bugungi davrda energiya resurslariga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Mamlakatimizda keyingi yillarda energiya resurslaridan samarali foydalanish, muqobil energiya manbalarini keng joriy etish, ayniqsa, quyosh batareyalari orqali elektr energiyasi ishlab chiqarishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Energiya masalasida mustahkam qonunchilik asoslari yaratilib, 2024-yil 9-iyulda “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun 11 bob, 55 moddadan iborat bo‘lib, energetika sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Qonunning maqsadi energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Unda qonuniylik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik energiya tejamkorligini ta’minlashning asosiy prinsiplari etib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida 2025-yilda energetika sohasida amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilinib, kelgusidagi rejalar bayon etildi. Xususan, davlatimiz rahbari shunday dedi:

“Aholi farovonligi va biznesni rivojlantirishga xizmat qiladigan infratuzilmani yanada yaxshilash borasida 2025-yil katta o‘zgarishlar yili bo‘ldi. Energetika sohasida tub burilish yasaganimiz hisobiga elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini 85 milliard kilovatt-soatga yetkazdik.

Tasavvur qiling, agar 2017-yildagi 60 milliard kilovatt-soat darajasida qolib ketganimizda, bugungi iqtisodiyotimizni ikki baravar oshira olarmidik?”

Shuningdek, Prezidentimiz 2025-yilda sanoatda yuqori texnologiyali va kam energiya talab qiladigan tarmoqlarni rivojlantirish hisobiga 1 dollar mahsulot uchun sarflanadigan yoqilg‘i-energiya miqdori 13 foizga qisqartirilganini, buning natijasida yana 1 milliard dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratilganini alohida ta’kidladilar.

Yuqoridagi Qonunda O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi etib belgilangan. Vazirlik zimmasiga ushbu sohada ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va amaliyotga joriy etish, yoqilg‘i-energetika resurslari iste’molchilarini energiya tejamkor texnologiyalar hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining afzalliklari haqida xabardor qilish va tushuntirish ishlarini olib borish vazifalari yuklatilgan.

Darhaqiqat, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish arzon va barqaror energiya ishlab chiqarish bilan birga atrof-muhit muhofazasi, havoning ifloslanishi va ekologik muammolarning oldini olishga xizmat qiladi. Bu borada Prezidentimiz Murojaatnomada hamkorlar bilan jami 3,5 ming megavatt quvvatga ega, qiymati 4 milliard 200 million dollarlik yangi “yashil” energiya loyihalari boshlanganini, natijada 2026-yilning o‘zida 7 milliard kub metr tabiiy gaz tejalishi hamda havoga 11 million tonna zararli moddalar chiqishining oldi olinishini ma’lum qildilar.

Qonunda qurilish, sanoat, transport, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy obyektlarda energiyadan foydalanish talablari aniq belgilangan. Ayniqsa, taraqqiyotning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan qurilish sohasini energiya ta’minotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Qonunning 25-moddasida ushbu sohada energiyadan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Aholi sonining ortib borishi, maishiy texnika vositalarining ko‘payishi, sanoat korxonalari va ijtimoiy obyektlarning kengayishi energiya resurslariga bo‘lgan ehtiyojni yildan yilga oshirmoqda. Shu bois energiya resurslaridan, ayniqsa, qayta tiklanuvchi manbalardan oqilona foydalanish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik energetika taqchilligining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada oilalarda, maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab barcha ta’lim bosqichlarida energiyani tejash madaniyatini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Qobil BOBOJONOV,
Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi deputati

AHOLIGA IJTIMOIY XIZMATLAR – INSONPARVAR JAMIYAT MEZONI

Jamiyat taraqqiyotining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri — aholining ehtiyojmand qatlamiga ko‘rsatiladigan g‘amxo‘rlik va ijtimoiy yordamdir. Ayniqsa, keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, kam ta’minlangan oilalar va yordamga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Keksalar — jamiyat tajribasi, hayotiy zakovat va ma’naviyat timsolidir. Ularga munosib sharoit yaratish, salomatligini asrash hamda ijtimoiy muhofaza qilish davlat va jamiyatning umumiy burchidir. Shu bois keksalar uchun uyda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, oziq-ovqat olib berish, uy ishlarida yordam berish, tibbiy kuzatuvni yo‘lga qo‘yish, “Murojaatlar markazi” orqali muammolarni tezkor hal etish, sanatoriy va dam olish maskanlariga yo‘llanmalar ajratish, pensiya va nafaqalarni o‘z vaqtida yetkazib berish hamda keksalar uylarida tibbiy va maishiy xizmatlarni kengaytirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar ham jamiyatning teng a’zosi sifatida ta’lim, mehnat, harakatlanish va axborotdan foydalanish huquqiga ega. So‘nggi yillarda ular uchun yaratilgan imkoniyatlar sezilarli darajada kengayib, protez-ortopediya vositalari va harakatlanish qurilmalari bilan bepul ta’minlash, reabilitatsiya va adaptatsiya markazlari faoliyatini kuchaytirish, inklyuziv ta’lim uchun maxsus sharoitlar yaratish, ish o‘rinlari uchun kvotalar ajratish va kasb-hunar o‘rgatish kurslarini tashkil etish ishlari izchil davom etmoqda. Shuningdek, infratuzilmalarni moslashtirish, panduslar, ovozli svetoforlar va maxsus yo‘lakchalar barpo etish orqali ularning kundalik hayoti yengillashtirilmoqda.

Ijtimoiy himoya tizimi keng qamrovli bo‘lib, kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam va nafaqa to‘lovlari ajratish, maktab yoshidagi bolalarga kiyim-kechak va oziq-ovqat yordamini ko‘rsatish, uy-joy to‘lovlari bo‘yicha kompensatsiyalar berish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Yolg‘iz yashaydigan fuqarolar uchun uyda ijtimoiy xizmatlar, tibbiy ko‘rik va tezkor yordam, psixologik hamda huquqiy maslahatlar yo‘lga qo‘yilgan. Ayni paytda ayollar va yoshlar uchun xotin-qizlar markazlari orqali bepul kurslar va maslahatlar, yoshlar bandligini ta’minlashga qaratilgan dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda.

Yangi islohotlar natijasida mamlakatda ijtimoiy xizmatlarning yagona reyestri, ijtimoiy safarbarlik markazlari, uyma-uy o‘rganish tizimi, ixtisoslashtirilgan hamshira va ijtimoiy xodimlar xizmati yo‘lga qo‘yildi. Bu orqali har bir fuqaroning holati o‘rganilib, ehtiyojidan kelib chiqib manzilli va targetlangan yordam ko‘rsatilmoqda.

Keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va ijtimoiy ehtiyojmand aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar davlat siyosatining insonparvar yo‘nalishini, jamiyatning ma’naviy yetukligini yaqqol namoyon etadi. Barchaga teng va munosib sharoit yaratish orqali nafaqat fuqarolarning turmush darajasi oshadi, balki mamlakatning ijtimoiy barqarorligi va izchil rivoji uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Inson qadri ulug‘langan joyda jamiyat ham mustahkam bo‘ladi.

Iroda QODIROVA,
Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi deputati,
XDP a’zosi

MAKTABGA ILK QADAM VA MUVAFFAQIYAT SARI YO‘L

Pedagog minbari

Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifasi — zamon talablariga mos, bilimga chanqoq va faol yosh avlodni tarbiyalashdan iborat. Bu jarayon bolalarning maktabga ilk qadamidan boshlanadi. Ayniqsa, 1-sinf o‘quvchilarining maktab hayotiga moslashuvi ta’lim jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Maktabga endigina kelgan bola uchun hamma narsa yangidir. Yangi muhit, yangi o‘qituvchi, yangi sinfdoshlar va kundalik dars tartibi boladan ma’lum darajada moslashuvni talab qiladi. Shu sababli maktabga moslashuv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish bolaning o‘qishga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabga moslashuv bir nechta yo‘nalishda amalga oshadi. Psixologik moslashuvda o‘quvchi maktab muhitiga o‘rganadi, o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan erkin muloqot qila boshlaydi. Jismoniy moslashuv dars jadvali, mashg‘ulotlar va kundalik tartibga moslashishni anglatadi. O‘quv faoliyatiga moslashuv topshiriqlarni bajarish, diqqatni jamlash va sinf qoidalariga amal qilish orqali shakllanadi. Ijtimoiy moslashuv esa jamoada o‘z o‘rnini topish va tartib-intizomga rioya qilishda namoyon bo‘ladi.



O‘quv yili boshidan buyon 1-sinf o‘quvchilarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ular maktab tartibiga moslashib, darslarda faol ishtirok etmoqda. O‘qish va yozish ko‘nikmalari asta-sekin rivojlanib bormoqda. Bolalarning maktabga bo‘lgan qiziqishi yuqori, ular har kuni darsga xush kayfiyatda kelmoqda. Bu natijalar ota-onalar, o‘qituvchilar va maktab jamoasining hamkorligi samarasidir.

Xulosa qilib aytganda, zamon bilan hamnafas yoshlarni tarbiyalash 1-sinfdanoq boshlanadi va bu jarayon bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinfda yaratilgan ijobiy muhit va to‘g‘ri yondashuv bolalarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirib, ularning kelgusidagi yutuqlariga yo‘l ochadi.

Rahima BOYTEMIROVA,
Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabi
ma’naviy-ma’rifiy ishlar
bo‘yicha direktor o‘rinbosari



HISSIY INTELLEKT NIMA VA U QANDAY RIVOJLANADI?

Hissiy intellekt — bu insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglay olish, ularni boshqarish va boshqalarning hissiy holatini tushuna bilish qobiliyatidir. Bugungi tezkor hayot sharoitida nafaqat bilim va tajriba, balki aynan hissiy yetuklik ham inson muvaffaqiyatida muhim o‘rin tutadi.

Hissiy intellekt bir nechta asosiy omillar orqali rivojlanadi. Ulardan biri uyg‘oqlik va ongli harakatdir. Bu insonning o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va qilayotgan xatti-harakatlaridan xabardor bo‘lishini anglatadi. Ya’ni, nima qilinayotgani va nega aynan shunday yo‘l tutilayotganini tushunish. Ongli yashash shoshqaloqlikni kamaytirib, mas’uliyatni oshiradi.

Yana bir muhim jihat — o‘zini hurmat qilish va qabul qilishdir. Hissiy jihatdan yetuk inson atrofdagilarning bahosi va fikrlariga qaram bo‘lib qolmaydi. U o‘zini qanday bo‘lsa, shunday qabul qiladi, voqelikni real idrok etadi va o‘z qarashlarida qat’iyat bilan turadi.

Motivatsiya ham hissiy intellektning ajralmas qismi hisoblanadi. U yangilikka ochiqlik, shaxsiy qadriyatlarni aniqlash, muvaffaqiyatsizliklardan to‘g‘ri xulosa chiqarish va o‘zini anglash istagi orqali namoyon bo‘ladi. Ichki motivatsiya insonni doimiy rivojlanishga undaydi.

Moslashuvchanlik esa hayotiy vaziyatlarga to‘g‘ri munosabat bildirish, xulosa chiqarish, qaror qabul qilish, empatiya va samarali muloqot qila olish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi.

Hissiy intellektni rivojlantirish uchun avvalo inson o‘z xatti-harakatlarini to‘g‘ri baholashi va voqelikka adekvat fikr bilan qarashi lozim. Ko‘pincha biz o‘zimizdagi ayrim jihatlarni minus deb qabul qilamiz. Aslida esa har bir minus ortida ijobiy jihatlar yashiringan bo‘ladi. Masalan, inson o‘zini qaysar deb biladi va bundan uyat hissini his qiladi. Ammo chuqurroq qaralganda, qaysarlik ma’lum bir ehtiyojning qondirilishiga qaratilgan ichki harakat bo‘lishi mumkin. Inson qaysarligini tan olib, uni tushunishga harakat qilsa, toksik uyat hissi kamayadi, ehtiyoj aniqlanadi va tasdiqlanadi. Natijada qarashlar o‘zgaradi, fikr bilan birga hissiy holat ham ijobiy tomonga almashadi. Demak, qaysarlik har doim ham kamchilik emas.

Aslida, yaxshi yoki yomon his-tuyg‘ular mavjud emas. Har bir tuyg‘u psixika uchun zarur va muhim. Muhimi — ularni signal sifatida qabul qilishdir. His-tuyg‘ular xavf haqida ogohlantirishi, shaxsiy chegaralarning buzilganini yoki o‘ziga nisbatan beparvolikni ko‘rsatishi mumkin. Ularni bostirish emas, balki eshitish va sog‘lom tarzda chiqarish muhim hisoblanadi.

Ko‘pchilik insonlarda bolalik davridan qolgan cheklovchi qarashlar mavjud. Masalan, “o‘g‘il bola yig‘lamaydi” yoki “qiz bola urushmaydi” kabi fikrlar hissiy holatlarni tan olishga to‘sqinlik qiladi va insonni o‘z tuyg‘ularini yashirishga majbur etadi.

Shu sababli har bir inson o‘zidan tez-tez “Ayni damda men nimani his qilyapman?” deb so‘rab turishi kerak. Keyin esa bu tuyg‘uning sababini tushunishga harakat qilish lozim. His-tuyg‘uga ruxsat berish muhim, chunki u insonning o‘ziga tegishlidir. Tahlil qilish esa keyingi safar yanada ongli va sog‘lom qaror qabul qilishga yordam beradi. Sabab va natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglay boshlagan inson muammo oqibatlari bilan emas, balki uning ildizi bilan ishlaydi. Xulosa qilib aytganda, hissiy intellektni rivojlantirish o‘zini anglash, qabul qilish va hayotni yanada mazmunli yashashga xizmat qiladi.

Yulduz NORMURODOVA,
“Ed-Ex school” xususiy
maktabi psixologi


MATEMATIKA FANINI O‘QITISHNING ILG‘OR XALQARO TAJRIBALARI

Mamlakatimiz mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilikni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni ta’minlash, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini yaratishda muhim poydevor bo‘ldi. Shu bilan birga, xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta’lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Ta’lim sifatini oshirish maqsadida uning holati va rivojlanish tendensiyalarini uzluksiz monitoring qilish, o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini ob’ektiv va adekvat baholash muhim ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, o‘quvchilarning keyingi shaxsiy va fuqarolik rivojlanishi uchun zamin yaratadigan umumiy o‘rta ta’lim darajasida alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori bilan xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish va o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi. Milliy markazning asosiy vazifalari umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar bilan solishtirish va xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, markaz ilg‘or xalqaro tajribalarni ommalashtirish va ular asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiyalar hamda qo‘llanmalar ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. Shuningdek, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish, o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalanish ham markazning muhim vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston quyidagi xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etadi: PISA (Programme for International Student Assessment) – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar savodxonligini baholash; TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlarni



o‘zlashtirish darajasini o‘lchash; PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) – 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash; TALIS (Teaching and Learning International Survey) – rahbar va pedagog kadrlarning o‘qitish va o‘qish muhitini, shuningdek, o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish.

Xalqaro baholash dasturlarida O‘zbekistonning ishtirok etishiga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan. Ushbu yo‘l xaritaga ko‘ra, o‘quvchilarning yozma va og‘zaki savodxonliklarini oshirish uchun milliy va xalqaro ilg‘or tajribalar joriy etiladi. Shuningdek, hududlarda malakali o‘qituvchi-trenerlar bilan hamkorlikda o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etish belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, biz, matematika fani o‘qituvchilari, o‘quvchilarimizning xalqaro tanlovlarda yaxshi natijalarga erishishi uchun barcha imkoniyat va kuchimizni safarbar qilamiz.

Hulkar SHAMSHIYEVA,
Toshkent shahar Olmazor tumani
Abdulla Qodiriy nomidagi
ijod maktabi matematika fani
o‘qituvchisi

Deputat nazorati

QURILISH VA TA’MIRLASH JARAYONLARI O‘RGANILDI

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari o‘zlari saylangan hududlarda amalga oshirilayotgan ishlar ustidan nazorat olib borishi muhim hisoblanadi. Shu maqsadda Xalq deputatlari Bekobod tuman Kengashi deputati Inom Egamberdiyev “Achamayli” mahalla fuqarolar yig‘inidan saylangan deputat sifatida hududdagi 20-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti qurilishi va rekonstruksiya jarayonlari bilan tanishdi.

Mazkur maktabgacha ta’lim tashkilotining 210 o‘ringa mo‘ljallanib rekonstruksiya qilinishi va qo‘shimcha binoning qurilishi hududdagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Deputat qurilish jarayonida bajarilayotgan ishlar sifati, loyiha talablariga rioya etilishi hamda belgilangan muddatlar masalalariga e’tibor qaratdi.



O‘rganish jarayonida quruvchilar bilan suhbatlashilib, aniqlangan ayrim masalalar yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi. Ta’kidlanganidek, qurilish ishlarini sifatli va o‘z vaqtida yakunlash aholi uchun qulay sharoitlar yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Deputatlarning bunday amaliy nazorati hududlarni ijtimoiy rivojlantirish, aholining ehtiyoj va manfaatlarini ta’minlashga xizmat qilmoqda. 20-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti foydalanishga topshirilgach, “Achamayli” mahallasidagi ko‘plab bolalar zamonaviy va qulay ta’lim muassasasiga ega bo‘lishi kutilmoqda.

O‘z muxbirimiz

YOZUVCHI O‘YLARI

BEKOBOD SHUHRATINI TIKLASH YO‘LIDA



Bekobod tumanining avvalgi shuhratini tiklash masalasi juda keng qamrovli bo‘lib, men bu gal faqat bir jihat – Bekobod dehqonlarining mirishkorligi shuhratini qayta tiklash haqida o‘z xotiralarimni bayon qilmoqchiman.

Bekobod tumani o‘tgan asrning yetmishinchi yillaridan boshlab dehqonchilik va chorvachilikning ko‘plab yo‘nalishlari bo‘yicha viloyatda yetakchi o‘rinni egallagan. Bunga sabab Mirzacho‘lni o‘zlashtirish rejasiga ko‘ra, qaqroq dashtlarga Sirdaryodan kanallar chiqarilib, yangi yerlarning o‘zlashtirilganidir. Ikkinchi jahon urushi yillarida bu dashtlarga mesxeti turklari, qrim tatarlar, koreyslar hamda tog‘li hududlardan ko‘chirib keltirilgan aholi joylashtirildi. Ular mahalliylashib, yangi qishloqlarni vujudga keltirdilar.

Ko‘chirib keltirilgan aholi o‘zlari bilan dehqonchilik, chorvachilik va milliy taomlar madaniyatini ham olib kelishgan. Ular jamoa xo‘jaliklarida ishlab, o‘z tomorqalarida ilgari bu yerlarda deyarli uchramagan ekin turlarini yetishtirishni yo‘lga qo‘ydilar. Natijada Bekoboddagina emas, balki qo‘shni tumanlar va hatto Tojikiston hududlarida ham bu ekinlar ommalasha bordi. Koreys dehqonlari botqoq yerlarda sholipoyalar barpo etib, piyoz va turli karam turlarini ko‘paytirib, bozorlarda arzonchilik va rang-barang-likni ta’minladilar. Yeryong‘oq va kungaboqar ekiladigan maydonlar kengaydi, Bekobod anorlari esa Toshkentgacha mashhur bo‘ldi. Ko‘plab xonadonlarda kurka va boshqa uy parrandalari parvarishi yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, plyonka ostida sabzavot ko‘chatlarini yetishtirish, ilk issiqxonalarni barpo etish amaliyoti ham aynan Bekobod dalalarida, xususiy tomorqalarda boshlangan edi.

Keyinchalik mesxeti turklari va qrim tatarlar o‘z tarixiy yurtlariga qaytib ketdilar. Mustaqillikdan so‘ng esa ko‘pchilik koreys dehqonlari Rossiyaning Volga bo‘yidagi dashtlariga yo‘l olishdi. Natijada ushbu sektor asosan mahalliy aholi qo‘lida qoldi. Ular o‘z tajribalarini ishga solib, bir muddat bu sohani ushlab turishdi. Ammo yillar o‘tishi bilan, ayniqsa yoshlar orasida iste’molchilik kayfiyati kuchayib, ko‘plab yerlar ekinboplik xususiyatini yo‘qota boshladi.

So‘nggi yillarda esa tumanimizda ekinzor yerlarda asl ekinlarni qayta tiklash, masalan, azaldan sholi ekib kelingan yerlarga paxta ekish kabi xatolarga barham berish yo‘lida ishlar olib borilayotgani tahsinga sazovor. Biz Bekobodning tarixiy sholikorlik, bog‘bonlik va uzumchilik shuhratini qayta tiklashimiz zarur.

Afsuski, intensiv bog‘dorchilik uchun ajratilgan maydonlardagi ko‘plab daraxtlar meva berishdan ko‘ra soya solish uchun ekilgandek taassurot uyg‘otadi. Shu bois tumanimiz mirishkorlari boshqa hududlar bog‘bonlari tajribalarini o‘rganishsalar, yerga nafaqat mehr bilan, balki ilm bilan yondashsalar to‘rt-besh yil ichida Bekobod bog‘larida yetishtirilgan mahsulotlar nafaqat ichki, balki tashqi bozorlarga ham chiqishiga ishonamiz.

Olloyor BEGALIYEV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, “Shuhrat” medali sohibi

Orzular sari

KELAJAKDA KIM BO‘LSAM EKAN?



Har bir insonning o‘z maqsadi bo‘ladi. Mening eng katta maqsadim — ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi bo‘lishdir. Chunki ona tili — millatning yuragi, adabiyot esa xalqimizning ruhi hisoblanadi. Shuning uchun men ushbu kasbni tanladim.

Bu kasb mas’uliyatli va sharafli kasbdir. Men kelajakda o‘quvchilarimga Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi buyuk shoir va adiblarni sevdirishni xohlayman.

Ona tili va adabiyot fanlari nafaqat chiroyli yozish va ravon gapirishni, balki ma’naviy qadriyatlarimizni anglashni ham o‘rgatadi. Yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsam, ona tili fani imlo qoidalarni o‘rgatsa, adabiyot fani esa nutqimizni boyitadi, kitob o‘qishni, she’r yodlashni o‘rgatadi, shoir va adiblarning hayoti hamda ijodi bilan tanishtiradi. Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi bo‘lish menga juda katta mas’uliyat yuklaydi. Men ustozimga o‘xshab sabrli, adolatli va matonatli bo‘lishni istayman.

Mening intilishlarim juda ko‘p. Hozirda ona tili fanidan “Milliy sertifikat” olish uchun imtihon topshirishga tayyorgarlik ko‘ryapman. Ustozimning aytishlaricha, “Milliy sertifikat”ning amal qilish muddati uch yil bo‘lib, undan foydalanadigan vaqtim kelguncha muddati o‘tar ekan. Lekin mening hozir topshirishimdan maqsad — imtihon savollari bilan tanishish, muhitni o‘rganish, tajriba orttirish va o‘zimni sinab ko‘rishdir.

Kelajakda o‘quvchilarimga o‘zbek tilining fan sifatidagi sir-asrorlari va boy bilimlarini o‘rgataman. Men jamiyatga foydasi tegadigan, bilimli va hamma tan oladigan o‘quvchilarning ustoziga aylanishni istayman. O‘quvchilarimning nutqi, tarbiyasi va bilimini yanada mustahkamlashga harakat qilaman. Mening asosiy niyatim — ularni bilimli, Vatanga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdir.

Men barcha o‘quvchilarimni a’lochi qilishga intilaman, ularni turli olimpiada va tanlovlarga olib boraman. O‘zim ham ona tili va adabiyot fanlari bo‘yicha o‘tkaziladigan musobaqalarda qatnashib, yuqori natijalarga erishishga harakat qilaman. Buning uchun hozirdan boshlab ko‘p mehnat qilmoqdaman.

Ona tili va adabiyot fanlarini chuqur o‘rganishga, uy vazifalarini vaqtida bajarishga intilaman. Shuningdek, boshqa fanlardan ham yaxshi o‘qishim zarur, chunki kelajakda o‘quvchilarim turli fanlardan savol berishlari mumkin. Ularning savollariga javob bera olish — o‘qituvchining burchi.

Xulosa qilib aytganda, Vatanga sadoqat bilan xizmat qiladigan, jamiyatga foydasi tegadigan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdek sharafli kasbni egallashim uchun tinimsiz mehnat qilishim, ya’ni o‘z ustimda ishlab, ustozlarimdan bilim olishim, ularning o‘gitlariga quloq tutishim, eng asosiysi esa, qo‘ygan maqsadimga erishishga bo‘lgan ishonchimni hech qachon so‘ndirmasligim kerak.

Sabina ATAYEVA,
“Ed-Ex school” xususiy maktabi
6-sinf o‘quvchisi

YO‘L XAVFSIZLIGI VA JAMOAT MADANIYATI

SKUTERLAR: QULAYLIKMI YOKI XAVF MANBAI?

So‘nggi yillarda elektr skuterlar ko‘plab shahar ko‘chalarida tez-tez uchraydigan transport vositasiga aylandi. Ularning qulayligi, tejamkorligi hamda ekologik tozaligi aholi, ayniqsa, yoshlar orasida ushbu texnikaga qiziqishni oshirmoqda. Ammo mutaxassislar ushbu vositalar bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarining soni yil sayin oshayotgani haqida ogohlantirdi.

Elektr skuterning afzalliklari ko‘p: tirbandliklardan qutqaradi, yoqilg‘iga ehtiyoj sezmaydi va havoga zararli moddalar chiqarmaydi. Biroq ularni boshqarishda haydovchilarning aksariyati xavfsizlik qoidalariga to‘liq amal qilmayapti. Shlemsiz harakatlanish, himoya kiyimlaridan foydalanmaslik, tezlikni oshirib yuborish oqibatida og‘ir jarohatlar qayd etilmoqda. Piyodalar yo‘laklarida yuqori tezlikda yurish, svetofor talablarini e’tiborsiz qoldirish, avtomobillar orasidan xavfli o‘tish esa nafaqat haydovchining, balki boshqa insonlarning ham hayotiga xavf soladi.



Tibbiyot xodimlari so‘nggi ikki yil ichida aynan elektr skuterlar bilan bog‘liq jarohatlar keskin ko‘payganini bildirayotgan bo‘lsa, yo‘l-patrul xizmati vakillari fuqarolarni himoya vositalaridan to‘liq foydalanishga va yo‘l qoidalariga qat’iy rioya qilishga chaqirmoqda.

Elektr skuterlar zamonaviy hayotimizning qulay vositasiga aylangan bo‘lsa-da, uni boshqarishda mas’uliyatli bo‘lish zarur. Har bir haydovchi avvalo o‘z xavfsizligi, keyin esa atrofdagilarning hayotini o‘ylashi lozim. Aks holda, qulaylik sifatida yaratilgan bu texnika inson hayoti uchun “yashirin xavf”ga aylanib qolishi mumkin.

Nodirjon TOSHBOYEV,
Bekobod tuman ixtisoslashtirilgan maktab ingliz tili fani o‘qituvchisi

BAG‘RI YONIQ QALAMIM MANIM

Ijodni o‘ziga qismat bilib qo‘liga qalam olgan har bir qalamkash olamni kuzatishga, yonatrofda bo‘layotgan voqealarni tahlil qilishga, shuning barobarida har kuni qog‘oz qoralashga majbur. Zotan ijodkorlikning asosiy qonuni – yozishdir. Ijodkor ko‘nglida tug‘ilib, oppoq qog‘ozga to‘kilgan har bir satr, asar gazeta-jurnal yoki kitob sahifalarida bosilgach, xalq mulkiga aylanadi. Aslida, har bir qalam ahlining pirovard maqsadi ham shudir. Xalqqa manzur bo‘ladigan, uning yuragidan joy oladigan asarlar yaratish.

Men ham 14 yoshimdan buyon ana shunday ezgu maqsad yo‘lida qalam tebratib kelmoqdaman. Avvaliga ilk qoralamalarim, o‘zim tengi bolajonlar uchun yozgan “Quyoncha”, “Bolajon”, “Pashshalar”, “So‘nggi qo‘ng‘iroq”, “Mening o‘z ovozim bor” kabi bir qancha she’riy mashqlarim “Jizzax ovozi” va “Jizzax haqiqati” gazetalarining sahifalarida, shu bilan bir qatorda Jizzax viloyat teleradiokompaniyasining efir to‘lqinlarida xalqimiz e’tiboriga havola etildi. Aynan shu holat meni yanada ilhom bilan, shavq-u zavq bilan yozishga undadi. Ijod deb atalgan sirli olamning og‘ushida tinmay mehnat qilishga o‘rgatdi.

O‘zim orzu qilganimdek jurnalistika sohasida ilm olish, poytaxtdek shahri azimda ijod dunyosining darg‘alaridan saboq olish ishtiyoqi meni asta-sekin maqolalar, esselar, kundaliklar yozishga undadi. Tinimsiz o‘qishga, bilim va tafakkurimni oshirib borishga intildim. Ko‘rganlarimni, kuzatganlarimni, xayol va hayratlarimni to‘xtamasdan yozib borishga odatlandim. Garchi talabalik baxtiga kechroq erishgan bo‘lsam-da, hech bir kuch meni tanlagan yo‘limdan, maqsadlarimdan qaytara olmadi.

Yurtimizda ko‘zga ko‘ringan “Turkiston-press” axborot-agentligi, “Ma’rifat”, “Ishonch”, “Oila va jamiyat”, “Nuroniy”, “Mahalla” kabi davriy matbuot nashrlari, “Keksalik gashti”, “Avtohamroh” kabi jurnallardagi faoliyatim publitsistika yo‘nalishida qalamimning charxlanishida katta maktab vazifasini o‘tadi.

Shuningdek, davriy nashrlardan “Xalq so‘zi”, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, “Turkiston”, “Oila va jamiyat”, “Mohiyat”, “Mahalla”, “Zarafshon”, “Yoshlik”, “Saodat” kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan she’r, maqola va hikoyalarim meni xalq orasida tanilishimga sabab bo‘ldi.

2001-2004-yillar davomida O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasining “Yoshlar” telekanalida efirga uzatilgan “Davr” informatsion dasturi, “Yoshlar ovozi”, “Munavvar tong” kabi madaniy-ma’rifiy dasturlarda, keyinchalik esa 2013-2019-yillar davomida telejurnalist o‘laroq faoliyat olib borganim “Madaniyat va ma’rifat” telekanalida mualliflik va boshlovchilik qilganim “Uyga qaytib”, “Surat va siyrat”, “Bag‘rikeng diyor”, “Moziyga sayohat” kabi bir qancha mualliflik teleko‘rsatuvlarimda yurtimizdagi millatlararo mehr-oqibatni, madaniyat va san’atimizni tarannum qilishga harakat qildim.

Aynan talabalik yillarimda she’r va maqolalarga sig‘magan tuyg‘ularimni badiiy fotosuratlarda ifodalashga harakat qildim. Xalqimiz endi meni faqatgina shoira emas, balki fotorassom sifatida ham taniy boshladi. 2007-2019-yillar davomida professional fotografiya olamidagi muvaffaqiyatli odimlarim va yurtimiz bo‘ylab o‘tkazgan 30 ga yaqin shaxsiy fotoko‘rgazmalarim menga ko‘plab yutuqlar olib keldi.

Ijod yo‘llarimni yoritgan ustozlarimdan birinchi o‘qituvchim Qaddas Muhammadiyev, musiqa o‘qituvchim Alijon Burxonov, adabiyot o‘qituvchim Bayonqul Normurodov, jizzaxlik jurnalist Nodira Alimova, poytaxtga kelgach taniganim Sa’dulla Hakim, O‘tkir Rahmat, Amirqul Karimov, Mahmud Sa’diy, Halim Saidov, Nazira Toshpo‘latova, O‘zbekiston xalq rassomi Akmal Nur, fotorassom Sultonboy Dehqonov, san’at yo‘lidagi ustozlarim Zamira Suyunova, Komila Aminboyeva va boshqalardan bir umr minnatdorman. Ularning har bir so‘zi, o‘giti men uchun qadrlidir.

Qisqa qilib aytganda, she’rlar mashq qilish bilan boshlaganim ijod yo‘limda asl hamrohim bo‘lgan bag‘ri yoniq qalamim bugun meni yurakdan jo‘shib kuylashgacha bo‘lgan yo‘llarda ham sadoqat bilan yonimda turibdi. Dunyoda qancha maqtov yoki ehtirom bo‘lsa, qalamim nomiga aytishni xohlardim.

Vatandan ayro yillar..

2019-yilning sentyabr oyidan boshlanib, 2023-yilning 2—oktyabrigacha Turkiya jumhuriyatida davom etgan ijodiy safarim davomida rasmiy ma’noda ijoddan uzoqlashganimni hisobga olmasam, ko‘nglimdagi bor tuyg‘ularni qog‘ozga tushirishga intildim. Qalam tebratishni qismat deb bilganlar, istasa ham, istamasa ham, yozishga mahkum ekanligini yaxshi bilishadi. Ko‘ngildagini qog‘ozga to‘kmaslik, ijodga xiyonat qilish bilan tengdir.

Shu davr ichida yozganlarimni onda-sonda “Ma’rifat” va “Ishonch” gazetalariga berganimni hisobga olmasam, ijod namunalarimni faqatgina Facebook sahifamdagi kuzatuvchilarim bilan bo‘lishdim. Facebook haqida so‘z ketganda, shuni tan olishim kerakki, bu yer mening o‘z so‘zimni aytishim mumkin bo‘lgan rasmiy sahnam bo‘ldi. She’rlarimni, yaratgan kuy-qo‘shiqlarimni aynan shu sahnada turli millat vakillaridan iborat bo‘lgan do‘stlarim bilan bo‘lishdim, olqishlar oldim, ustozlar tomonidan e’tirof etildim. Aynan Facebookdagi ijodiy faoliyatim sabab she’rlarim va tarjimalarim Turkiya, Ozarbayjon kabi bir qancha qardosh o‘lkalardagi nufuzli gazeta va jurnallardan o‘rin oldi.

Garchi, ona vatanimdagi ommaviy axborot vositalaridagi ijodiy faoliyatimdan bir muddat uzoqlashgan bo‘lsam-da, ijod qilishdan aslo to‘xtamadim. 2023-yilning sentyabr oyida hayotimda tub burilish bo‘ldi, deya olaman. Bu o‘zgarish meni dunyoga keltirgan onajonimdan tortib, meni tanigan barcha do‘stlarimni shod etdi. Nihoyat 42 yoshimda Turkiya jumhuriyatining Aydin viloyatiga qarashli Didim tumanida an’anaviy tarzda o‘tkazilayotgan “Didim 17-Xalqaro she’r, musiqa va san’at festivali”da taqdirimga bitilgan insonni, bo‘lajak turmush o‘rtog‘imni uchratdim. Aydinlik fotojurnalist va shoir Jo‘shqun Tag‘a bilan festival davomidagi do‘stona munosabatimiz davomida fikr va dunyoqarashimizning bir-biriga o‘xshashligi, tafakkur dunyomizning o‘zaro yaqinligini hisobga olgan holda turmush qurishga qaror qildik. Va bu ezgu ish aynan O‘zbekistonda amalga oshganidan nihoyatda xursandman. Ming shukrkim, bugun ona vatan bag‘rida kimligimni, maqsadlarimni, orzu va umidlarimni yana bir bora xotirladim.

Hamkasbim va umr yo‘ldoshim Jo‘shqin Tog‘aning shunday so‘zi bor: “Kim ekanligingni unuttirganlar bilan emas, balki yodga solganlarning yonida bo‘l”. Bu so‘zni undan ilk marotaba eshitganimda ochig‘i hayratlandim. Qisqa, ammo chuqur ma’noga ega jumla. Bugun bu sehrli jumlani hayotiy shiorim bilib, unga amal qilishga harakat qilmoqdaman. Ona vatanim bag‘rida yana qaynoq ijod og‘ushida ilhom bilan yangi asarlar yaratishga intilmoqdaman.

Jo‘shqin bey bilan poytaxtimiz Toshkentda yoshlik yillarimning g‘ayrati va shijoati bilan faoliyat olib borganim gazeta, jurnallar tahririyatiga borib, u yerda ustozlar bilan suhbatda bo‘lish, radioeshittirishlar va teleko‘rsatuvlardagi chiqishlarimiz, qadrdon hamkasblarim bilan uchrashish, “Ma’rifat” va “Ishonch” kabi sevimli gazetalarda maqolalarimning chop etilishi, meni yana tinib-tinchimas, serg‘ayrat Naziraga aylantiroldi.

Bugun ijod olamida nimagaki erishgan bo‘lsam, yaratganning qo‘limga tutqazgan, dardli qalamim sababdir. U hech bir zamon meni tark etmadi. Eng og‘ir damlarimda dardkashim bo‘ldi. Gohida she’r, gohida qo‘shiq bo‘lib, yuragimga umid berdi. Ko‘ngil bog‘laridan to‘kilgan har bir satr qalamim yordamida muxlislarga yetib bordi. Qalamim sabab, bugun xalqaro maydonda ham o‘z so‘zimni ayta olmoqdaman. She’rlarim, qardosh ozarbayjon, turk, qirg‘iz tillaridan tarjimalarim Turkiya va Ozarbayjonda chop etiladigan “Güfte edebiyat”, “Kardeş kalemler”, “Güncel Sanat”, “Türkay Dergi” kabi jurnallarda doimiy chop etilmoqda. Turkiya Yozarlar Birligining “Güfte edebiyat” jurnalining O‘zbekistondagi vakili sifatida o‘zbek shoir va yozuvchilar ijodidan davomli tarjimalar berib bormoqdaman.

Ayni paytda yana ona Vatan bag‘rida, Jo‘shqun bey aytganidek, mening kimligimni, o‘zimni, o‘zligimni xotirlatgan, yodga solgan insonlar, ustozlar yonidaman.

Bu kunlarni Mahmud Sa’diy ham ko‘rsaydi..

Bugun yana Vatanim bag‘ridaman. O‘tgan besh yil ichida yurtimizdagi o‘zgarishlarni, bunyodkorlik ishlarini ko‘rib, hech mubolag‘asiz



Ijod yo‘li

hayratdan og‘zim ochilib yuribdi. Bir kun kelib o‘z Vatanim bag‘rida turistlar kabi hayajonlanaman, kerak bo‘lsa, yig‘lab ham olaman, deb o‘ylamagandim. Nima ham derdim, haloli bo‘lsin, yurtboshimizning. Shuncha olamshumul ishlarga qo‘l uribdi.

Bu ishlarning hammasi yaxshi-kuya, lekin qalbimning bir chekkasi har doimgidek huvillab turibdi. Nega deysizmi? Sababi, meni har doim qo‘llab-quvvatlab, yozishga undab turadigan tog‘day ustozim Mahmud Sa’diy oramizda yo‘q. Har sohada bo‘lgani kabi, ijod sohasida ham ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni ko‘rib, ichimdan og‘riqli bir jumla tilimga ko‘chadi: “O‘lmay tursangiz bo‘larkan, ustoz!”. Mening va menga o‘xshagan qancha jurnalistlarning, ijodkorlarning eng og‘riqli dardi “Toshkent propiskasi” degan balodan qutulibmiz. Propiskaga qo‘yolmay, ishdan avtomatik ravishda bo‘shab, zor yig‘lagan kunlarim hali-hamon yodimda. Bugun o‘sha kunlar ertakka aylanibdi. Hozirgi yoshlarga bu haqda aytsam, “cho‘pchak aytayapsizmi”, deyishsa kerak. Ha, siz uchun cho‘pchak, biz uchun garchak.

Nima bo‘lganda ham u kunlarning ortda qolgani rost bo‘lsin.

Yana xayolan, ustoz Sa’diy bilan suhbatga tolaman: Esingizdami, ustoz, siz bilan SUMdagi kitob magaziniga borganlarimiz. Doim katta-katta, qimmat-qimmat, rang-barang kitoblarni sotib olardingiz. Ichimda “ustoz bularning hammasini o‘qib chiqarmikan, o‘zi” degan savol kechardi. Buning ustiga bari ruscha kitoblar bo‘lsa. Biz o‘zbekcha kitoblarni zo‘rg‘a o‘qirdik, siz bo‘lsangiz, qop-qop ruscha kitoblarni uyingizga tashirdingiz. Ha, aytgancha, sizning kutubxonangiz meni har doim qiziqtirgan. Lekin, bir bora bo‘lsa-da ko‘rmaganman. Uzunquloq gaplarga qaraganda, uyingizda kitoblaringiz tufayli oyoq bosishga joy qolmaganidan, uylanganingizda yangi kelinni oshxonaga tushirgan ekansiz. Bu dunyoda sizday kitobsevar yana bormikan, bilmayman. Balki, hayot bo‘lganingizda siz bahona borib ko‘rgan bo‘larmidim kutubxonangizni...

To‘g‘risi, siz ham Turkiyaga ketishim bilan ko‘chingizni ko‘tarib, chin dunyoga rixlat qilibsiz. Men 2019-yilning 9-sentyabrida Turkiyaning poytaxti Anqaraga uchdim. Yaxshi bilardingiz, 2004-yilgi avtoavariyadan keyin yillar davomida boshim surunkali og‘riyvergani uchun bir muddat davolanmoqchi edim. Shu maqsadda olis, ammo qardoshlarimiz yashaydigan mamlakatga yo‘l oldim. Sog‘lig‘im sabab bo‘lmasa, hech kim meni tank yordamida ham Vatan bag‘ridan uzoqqa yubora olmasdi. Demak, sizning ham ayni o‘sha damlarda sog‘lig‘ingiz yomonlashgan. Bo‘lmasa, o‘lguday o‘jar va qaysar shogirdingiz “Naziraboy”ni qaytishini kutgan bo‘lardingiz.

2019-yil, 23-noyabr.

O‘sha mash’um kun, Facebook orqali sizning chin olamga rixlat qilganingizni eshitib, boshdan-oyoq muzlab qoldim. Go‘yoki, kimdir ustimdan bir chelak muzday suvni ag‘darib yuborgandek edi. Qanday qilib ustoz o‘lishi mumkin deyman, o‘z-o‘zimga. Balki adashishayotgandir. Balki yolg‘on xabardir, deya qalbimga taskin bergim keladi. Axir, ba’zan shunaqasi ham bo‘lib turadi-ku. Koshki, shunday bo‘lsa edi. Ammo, bu xabarning rost ekanligini boshqa tanishlardan ham eshitgach, Antalya viloyatining Alanya tumaniga qarashli Avsallar mahallasi yaqinidagi dengizga borib, baqirib-baqirib yig‘ladim. Qish emasmi, osmon ham qop-qora bulutlar bilan qoplangan, go‘yo men bilan birga motam tutayotgandek. Ustozning o‘limi, otaning o‘limiday gap ekan. Shuni anglagandim o‘sha kuni.

Siz ketgach, dunyoning na todi qoldi, na tuzi. Covid degan balo tufayli yurtimizning ko‘pgina ziyoli qatlami tutday to‘kildi. Zamon ikkiga ayrilgandek edi, nazarimda. Coviddan oldingi va coviddan keyingi hayot. Men ham bir yil majburan Turkiyada qolib ketdim. Chunki, samoda samolyotlar tugul, qushlar ham parvoz qilmayotgandi bu paytda.

Noshukurlik bo‘lmasin, men o‘zimni eng baxtli jurnalistlardan deb bilaman. Chunki, Mahmud Sa’diydek ulug‘ chinorning soyasida avvalo insoniylikni, otalarcha mehrni, mas’uliyatni his qildim. Siz bilan men naqadar ustoz va shogird, yaqin do‘stlardek samimiy edik. Men haddim sig‘ib siz bilan bahslasha olar, ba’zan sizning fikringizga qo‘shilmas, o‘z fikrimda sobit qolardim. Siz ham buni bag‘rikenglik bilan qabul qilardingiz. Misol uchun talabalik yillarimda “Endi faqat kulib yashayman” nomli she’r kitobimni o‘qishga berganimda, hali kitob chiqarmagin, degandingiz. Men esa teskarisini qilib, stipendiya va maoshlarimni yig‘ib, Alisher Navoiy nashriyotidan 2000 nusxada she’riy to‘plamimni chiqargandim. Kitobimni o‘qib ko‘rib, yaxshiyam chiqaribsan, degandingiz.

“Matbuotchilar Uyi”da qolgan izlarimiz.

Eh, “Ma’rifat”ning “Adabiyot va san’at” bo‘limida siz bilan o‘tgan kunlarimni eslab, ham quvonaman, ham huzurlanaman. Quvonganim, ko‘plab xotiralarim bor siz bilan bog‘liq. Xafa bo‘lganim, bugun u dargohga borolmayman. Chunki, endi u joy ortiq “Matbuotchilar Uyi” emas...

Ochig‘i, bir kun kelib bu dargohdagi kunlar bir tushga, ro‘yoga aylanadi, deyishsa ishonmagan bo‘lardim. Ha, insonning aqliga kelmagan, boshiga kelarmish..

Bir paytlar “Madaniyat va ma’rifat” telekanalidagi “Men bilgan haqiqatlar” ko‘rsatuviga qahramon bo‘lgan edingiz. Yutubdan qidirib topdim. Tasvirlarda “Ma’rifat” gazetasidagi lavhalarni ko‘rib, ko‘zimga yosh keldi. Qanday davrlar edi-ya. Qaniydi, yana shu dargohga borib qadamingiz tekkan yerlarni tavof qilolsam.

Yana talabalik yillarimga xayolan qaytaman. Siz kelsangiz fakultetimiz to‘lib qolardi. Matbuot bilan yaqindan tanish talabalar uchun siz bir daho edingiz. Matbuotdan uzoq bo‘lganlar uchun esa, oddiy bir domla edingiz. Har doimgidek kitob to‘la sumkangizni stulga qo‘yib, mehr bilan salomlashardingiz talabalar bilan. Men ham paytdan foydalanib ham sizni tinglar, ham chiqillatib rasmga tushirib qo‘yardim. Yaxshiyam o‘shandda mittigina fotoapparatim bo‘lgan ekan, deyman baxtimga. Bo‘lmasa, sizni sog‘inganda rasmlarga boqib, xotiralarimni jonlantira olmagan bo‘lardim.

Yozishdan to‘xtama, Nazira.

“Ma’rifat” gazetasidagi faoliyatim davomida menga “ilhom” berib, “Nazira, tanballik qilma, sening yaxshigina qalaming bor. Yozishdan to‘xtama, har doim o‘zingga ishon. Yozganlaringga mening ko‘zim bilan qaragin. Shu maqolamga Mahmud nima degan bo‘lardi deb o‘ylagin” degan oltinga teng gaplaringiz meni bugun ham turtkilamoqda. Ha, mening qalamim bor. Yozmasam, sizday aziz ustozlarimning yuziga oyoq qo‘ygan bo‘laman.

Bilasizmi, ustoz, aslida, siz men uchun aslo o‘lmagansiz. Kompyuterimni ochib, yangi sahifaga yozishni boshlashim bilan “Qani, nimalarni yozyapsan, Naziraboy” deb qarshimda jilmayib turaverasiz. Mayli, siz tinch yoting! Men esa yana va yana yozishda davom etaman. Har yozgan maqolamni bo‘lsa xayolan sizga tahrir qildiraman. So‘ngra “Ma’rifat”ga beraman. Husan aka chiroyli qilib nashrga beradi. Mana ko‘rasiz, men sizning ishonchingizni, albatta, oqlayman. Hali hammasi yaxshi bo‘ladi, aziz ustozim. O‘sha kunlar kelganda siz bilan yana suhbatlashamiz...

Hurmat bilan, Nazira BOYMURODOVA,
jurnalist, fotorassom,
O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi
Badiiy Ijodkorlar Uyushmasi a’zosi,
2026-yil 2-yanvar, Qibray-Toshkent.

Hikoya

JAR YOQASIDA

Gazeta to‘xtov bilmas tegirmonga o‘xshaydi. Kattami-kichikmi, yaxshimi-yomonmi – har qanday “mahsulot”ni ko‘rdim demaydi. Birortasiniyam chiqitga chiqarmay, avval-oxir yamlab yutadi. Shu bois jurnalistning umri yugur-yugur bilan o‘tadi. Aniqrog‘i, uni qalamidan ham ko‘ra ko‘proq oyog‘i boqadi...

Hali uylanmagandim. Endigina dorilfununni bitirib, viloyat gazetasida muxbirlik qila boshlagandim. Ijarada yashash jonimga tekkanidan hafta oyoqlamay qishloqqa chopardim.

Bir safar, ayni qish chillasi, muhim topshiriq oldim: kimsan, Piskent tumanidagi butun respublikaga mashhur xo‘jalik raisi nomidan yil yakunlariga bag‘ishlangan maqola tayyorlashim zarur edi. Doimo yoshlardan nolib yuradigan injiqtabiat bo‘lim mudirim odatiga sodiq qoldi. Masalaning mohiyatini hijjalab, uzoq tushuntirdi. So‘ziga yakun yasarkan, meni yana bir marta jiddiy ogohlantirdi:

– Bilib qo‘y, bu aslida obkomning topshirig‘i. Sen uchun kelajagingni belgilab beradigan katta sinov!

So‘ngra yelkamga qo‘lini qo‘yib, dilkashlik bilan qo‘shimcha qildi:

– Omading bor ekan, og‘ayni. Bunday yuksak ishonchga hammayam sazovor bo‘lavermaydi...

O‘shanda “katta sinov”dan qanday o‘tganim, “yuksak ishonch”ni nechog‘liq oqlaganim, rosti, hali-hanuz menga qorong‘i. Ammo boshqa narsa – ilk xizmat safarim sharofati bilan onam rahmatlidan butun umrga tatigulik saboq olganim aniq yodimda.

...Qish – dehqon ahli uchun xotirjamlik fasli! Shundanmi, raisni osongina topdim. Nomi dongdor bo‘lsada, o‘zi past bo‘yli, jikkakkina, sodda-samimiy odam ekan. Meni idorada iliq qarshi oldi. Baqamti o‘tirib, bafurja suhbatlashdi. Gurungimiz avjida “Dalalarni aylansak-chi”, deya taklif kiritgandim, u dangaliga ko‘chib qo‘ya qoldi.

– Adashmasam, ko‘rinishingiz-u gap-so‘zingizdan dehqon bolasiga o‘xshaysiz, – dedi boshdan oyog‘imga qadar sinchkov razm solib. – Demak, hozir dalada tayinli ish bo‘lmasligini yaxshi bilasiz. Agar, yo‘q demasangiz, men sizga bitta g‘aroyib mo‘jizani ko‘rsatay. Balki, ma’qul topib, shu haqdayam biror narsa yozarsiz. Yuring!

Rais roziligimni kutmay, o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Dahlizga chiqqach, meni ko‘cha tarafga emas, tor va nimqorong‘i yo‘lak sari boshladi.

Burchakdagi xilvat eshik idora orqasida joylashgan chog‘roqqina hovliga ochilarkan. Ostona hatlaganimiz hamono aynan bir xil ko‘rinishdagi ikkita uzun binoga ko‘zim tushdi. Ular temirdan tiklangan bo‘lib, devorlari ham, tomlari ham oynavand edi. Bir qarashdayoq angladim: issiqxona xo‘jaligi! U paytlar paxtakor tumanlarda bunaqa inshootni uchratish, haqiqatan ham, o‘ziga xos yangilik sanalardi.

Ichkariga qadam bosar-bosmas, bahri-dilim ochilib ketdi. Negaki, tashqarida ayoz zabtiga olgan, huvillagan bog‘-rog‘larni, kimsasiz dalalarni qalin qor bosgandi. Bu yerda esa ko‘klam nafasi ufurardi. Baravj pomidor nihollari-yu bodringlar, yam-yashil ko‘katlar bahorga intiq ko‘zlarni quvontirardi.

– Teplitsa deganlari koni foyda ekan. – Qulog‘imga hamrohimning og‘ir-vazmin tovushi chalindi. – Ishga tushirganimizga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Shunga qaramay, halitdanoq sarf-xarajatimizni qoplayapti. – U xayolimdan kechgan savolni uqqanday, qaysi ekindan qancha hosil olinayotganini, xo‘jalikka qanday foyda keltirayotganini yodaki so‘zlay ketdi.

– Mana bu limonlarni ko‘rayapsizmi? – dedi rais navbatdagi bo‘lmaga o‘tgach, tarvaqaylab o‘sgan pakana daraxtlarga ishora qilib. – Ko‘chatini Kavkazdan keltirganmiz. Hosilini kilolab emas, donalab sotayapmiz. Mo‘maygina daromad olayapmiz. Lekin gap faqat iqtisodda emas. Muhimi, biz el salomatligini mustahkamlashga ham hissa qo‘shayapmiz. Bunday deyishimning sababi, limon – shifobaxsh meva. Ayniqsa, qon bosimiga davo!

– Rostdanmi? – dedim ishonqiramay. Chunki o‘sha kezlar azaldan doktorga borishniyam, dori ichishniyam xushlamaydigan onam ahyon-ahyonda “Boshim garangsiyapti. Ishqilib, qon bosimim oshmaganmikin?” deb xavotirlanadigan bo‘lib qolgandi. Limon yurtimizda kam uchraydigan tansiq meva bo‘lgani bois men uning dorivorlik xususiyatlaridan hali bexabar edim. Hozir raisning gapini eshitib, hayratimni yashirolmadim.

– Yaxshi aytdingiz, – dedim ko‘m-ko‘k barglar orasida oltinday tovlanib turgan mevalarga o‘zgacha nigoh bilan boqib. – Bundan keyin onamga tez-tez limon olib borsam bo‘larkan...

Aytilgan so‘z – otilgan o‘q! Nosinashta odam oldida o‘ylamay-netmay dilimdagini tilimga chiqarib, xato qilgan ekanman. Buni tushdan keyin – safarim qarib, ertangi kunlar shanba-yakshanba bo‘lgani sababli Toshkentga emas, qishloqqa qaytar mahalim bildim.

Meni xo‘jalikdan tuman markazigacha raisning yoshgina shofyori kuzatib qo‘yadigan bo‘ldi. U shaldir-shuldir, shinavanda va ochiqko‘ngil yigit ekan. Yo‘l bo‘yi zeriktirmadi. Shohbekatda eski qadrdonlardek quyuq xayrlashdi. Biroq avtobusga o‘tirib, nafasimni rostlashga ulgurmasimdan yana qarshimda paydo bo‘ldi.

– Uzr, aka! – dedi qo‘lidagi allaqanday qog‘oz xaltani ko‘kragi baravar baland ko‘tarib. – Manavini rais bova sizga berib yuborishimni tayinlovdi. Sal bo‘masa, unutayozibman.

– Nima bu? – hayron bo‘lib so‘radim.

– E, shunchaki arzimagan narsa! – Shofyor qog‘oz xaltani yonimdagi bo‘sh o‘rindiqqa qo‘yib, beparvolarcha qo‘l siltadi. – Ammo-lekin omasangiz bo‘maydi, men rais bovadan naq baloga qolaman. – Shu payt avtobus motori o‘t olganini sezib, gapni qisqa qildi. – Xo‘p, sog‘ bo‘ling, yaxshi yetib oling, aka!

U jo‘nash maydonchasidan orqaga tisarila boshlagan avtobusdan yengilgina pastga sakradi. Men hay-haylaganimcha qolaverdim. Zum o‘tmay noxush xayolga toldim: “Rais nega bunday qildiykin? Yoki u meni...”

Qo‘qqisdan miyamga urilgan noxush fikrdan etim seskanib ketdi. Bir niyatim, “sovg‘a”ni derazadan tashqariga irg‘itmoqchi ham bo‘ldim. Shu asno, baribir, qiziqishim ustun keldi. “Qani, ko‘rayin-chi, ichida nima bor ekan o‘zi?” degan o‘yda boyagi xaltani qo‘lga oldim. Og‘zini ochsam, limon! Roppa-rosa sakkiz dona. Har qaysisi kurkaning tuxumiday katta-katta. Hammasi zo‘r pishgan – sap-sariq.

Tushundim: demak, rais ertalab limonxonada aytgan gapimni esidan chiqarmagan. Manavi tansiq mevalarni onamga atab berib yuborgan. Beixtiyor uning ziyrakligiga tan berdim. Boyagi ahdimdan qaytib, limonlarni qog‘oz xaltaga bir tekis qilib o‘radim-da, diplomatimga solib qo‘ydim.

Uyga qishloqqa shom qorong‘isi cho‘kkanda kirib bordim. Onam meni har doimgidek bag‘riga bosib, peshonamdan o‘pib ko‘rishdi. Kiyimlarimni almashtirgunimcha dasturxon yozib, ovqat keltirdi. Non ushatayotganimda, haligi “sovg‘a” esimga tushdi.

– Bu sizga! – Limon solingan qog‘oz xaltachani diplomatdan chiqarib, tantanavor ravishda onamga uzatdim.

– O‘-o‘, bolam-a, ovora bo‘p nimalar ko‘tarib yuribsan? – U xontaxta yoniga cho‘karkan, meni koyigan bo‘ldi.

– Ochsangiz, ko‘rasiz. Ammo bitta sharti bor – hammaga ulashmaysiz. Faqat o‘zingiz yeysiz, xo‘pmi?

– Xo‘p! – Onam muloyim kulimsirab, uzun yenglarini shimardi. “Bismillo” deb, qog‘oz xaltani qo‘liga oldi. Avaylab ochdi-yu, xira tortgan ko‘zlari quvonchdan porlab ketdi. – Voy, limon-ku! – dedi yosh boladek xursand bo‘lib. Bir donasini barmoqlari uchida ushlab, ko‘z oldiga tutdi. Aylantirib tomosha qilarkan, shukrona keltirdi. – Xudoning qudratidan o‘rgilay, ne-ne ne’matlari bor-a. Tag‘in qishning qoq o‘rtasida pishsa-ya. – Limonni joyiga solib qo‘ygach, menga yuzlandi. – Onamga deb ilinganing uchun rahmat, umringdan baraka top, o‘g‘lim! Lekin-chi, ko‘p opkelishing shart emas. Menga bir-ikki donasiyam yetadi. Axir, sen ijara kavartirada yashaysan, hafta-o‘n kunda qishloqqa bir kep ketasan. Bunaqada oyliging...

– Siz u yog‘idan xavotirlanmang. – Onam nima demoqchiligini oldindan ilg‘ab, so‘zini bo‘ldim. – Limonlarni o‘z pulimga olganim yo‘q. Ular tekinga kelgan.

– Tekinga?!. – Onam hech narsani tushunmay, ko‘zlarimga termuldi. – Qanday qilib?

Nachora, ko‘nglini xotirjam qilish uchun bo‘lgan voqeani batafsil so‘zlab berdim. Gapimni tinglab, onam negadir bo‘shashib ketdi. Serajin yuzidan quvonch so‘ndi.

– Shunaqa degin... – U asabiylashgan ko‘yi titroq qo‘llari bilan dasturxon chetini dam qayirib, dam tekislay boshladi. Bir ozdan so‘ng ohista pichirladi. – Unda, xafa bo‘magin-u, men bularni yemayman.

– Nega? – Chaynagan nonim tomog‘imdan zo‘rbazo‘r o‘tdi.

– Pulini hech bo‘masa shopirdan berib yubormabsan-da.

Onam nochor ahvolga tushib qolgan odamday, eshik tomonga mung‘ayib boqdi. Uning gapi ohangida bu safar koyishdan ko‘ra achinish hissi ustunroq edi. Men aybimni oqlashga urindim:



– Ha, endi, nima qilay, sira ilojini topolmadim. Baribir eplolmadim, bahonam o‘rinsiz chiqdi. Onam battarroq xomush tortdi. Uning hammasiga o‘zi gunohkordek bir burdagina bo‘lib o‘tirishini ko‘rib, xayolini chalg‘itishga harakat qildim.

– Obbo, shunga shunchami, opa? Bor-yo‘g‘i sakkizta limon bilan kolxoz kambag‘allashib qolarmidi?

– Kalxoz-ku, kambag‘allashib qomaydi. Ammo ko‘pchilikdi haqiga xiyonat yomon bo‘ladi. Ikkinchi bunaqa qimagin. – Onam beixtiyor uf tortib, chuqur xo‘rsindi. – Axir, o‘zing bilasan, ko‘p aytganman-ku, o‘g‘rilik ignadan boshlanadi. Tekin taom esa tomoq yoradi. Buni hech qachon esingdan chiqarma.

U boshqa so‘z qotmadi. Mendan arazlaganday yuzini chetga burdi. Limonlar solingan qog‘oz xaltani deraza tokchasiga qo‘ydi-da, ovqatdan bo‘shagan kosani ko‘tarib, oshxonaga chiqib ketdi...

* * *

Kelasi juma bir do‘stimiz uylandi. El qatori uning to‘y bazmida qatnashdim. Qishloqqa ertasi kuni choshgohda yetib bordim. Onamning xonasiga kirdimu, tokchada turgan tanish qog‘oz xaltani ko‘rdim. Qanday bo‘lsa, shundayligicha chang bosganday bo‘lib yotibdi. Limonlardan birortasi aynib, suvi oqqan shekilli, bir cheti nam tortib, sal qorayib qolibdi. Ich-ichimdan zil ketib, poygakda kuymalanayotgan onamga qaradim:

– Bularga aqalli qo‘l ham tegizmabsiz-ku...

– Qo‘y, bolam, achchiqlanma. – U qaddini rostlab, siniq jilmaydi. – Ko‘nglim tortmadi. Sababini oldin aytuvdim, chog‘i.

Men zardali to‘ng‘illadim:

– Bekorga achitib qo‘ygandan ko‘ra, akalarimning bolalariga bersangiz ham bo‘lardi-ku.

– Nima? Nima deding? – To‘satdan onamning jahli chiqib ketdi. Ko‘zlari katta-katta ochilib, qoshlari bir ko‘tarilib tushdi. – Endi bir kamim o‘zim hazar qilib yemagan narsani nevaralarimga ravo ko‘rishim qoluvdimi? Yoki sizlarga biror marta harom luqma yedirganimni ko‘ruvdingmi?

So‘nggi jumlani aytgach, uning lablari titrab, kipriklari pirpiray boshladi. Men qanday javob qaytararimni bilmay, talmovsirab qoldim.

– U holda, – dedim noiloj onamga yon bosganday bo‘lib, – bularni hoziroq chiqarib tashlayman.

– Bilganingni qil!

Onam “Sanga nasihat hayf!” deganday keskin bosh silkidi. G‘udrangancha to‘rga o‘tirib, ko‘rpacha qavishga tutindi.

Men qog‘oz xaltani ko‘tarib, tashqariga chiqdim. Hovlimizdan sal naridagi jar boshiga bordim-da, uni bor kuchim bilan pastda mavjlanib oqayotgan Sirdaryoga uloqtirdim. Qog‘ozi yirtilib, havoga sochilgan limonlar birin-sirin suv ustiga tushdi-yu, qalqiy-qalqiy oqib ketdi.

Aftidan, xayolga berilib, ancha hayallab qolgan ekanman. Bir mahal ortimdan qorning g‘ijirlashi eshitildi. O‘girilib qarasam, o‘n-o‘n besh qadam narida onam turibdi. Yuz-ko‘zida boyagi gina-kuduratdan asar ham yo‘q. Boqishlari o‘sha-o‘sha – mehribon-muloyim. Lablarida nimtabassum...

– Endi uyga kir, havo sovuq, tag‘in shamollab qoma, bolam! – U shunday deya hovli tomon burildi.

...Men onamga ergashib, jar boshidan uzoqlashdim.

Abdunabi HAYDAROV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist,
“Shuhrat” medali sohibi

XONZODABEGIMNING TILLARANG SO‘ZI

BAXT TONGI

Xonzodabegim Jamolova Toshkent viloyatining go‘zal va so‘lim Bekobod tumanida tug‘ilgan. Chiroyli, iqtidorli, hayotsevar qiz edi. Sport tadbirlarida, she’riyat kechalarida, lider qizlar festivallarida faol qatnashib yurar edi. Rus, ingliz, turk va arab tillarini bilardi, mukammal o‘rganayotgan edi.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 1997-yildagi ma’rifiy tashabbusi asosida tashkil etilgan Respublika Yosh ijodkorlarining 2019-yilgi Zomin an’anaviy seminarida faol ishtiroki uchun e’tirof etilgandi…

…Menimcha u “Isyonkor” she’rida yorqinroq ochilishni boshlagan edi.

Dod dedim, shu kecha dod, dedim,
Tushun, ey odamzod, dedim.
Isyonkor shamollar elchidek,
U endi hijrondan shod, dedim.

Keyinchalik “Yurak tomonlarga havotir tushdi, Ismingni ziyorat etgali keldim” degan satrlarini yoqtirib, o‘ziga ham aytgandim.

Ortimdan ergashib yuradi osmon,
Hech kim kashf qilmagan tillarang so‘zman.
Hurriyat deb umrini sulhlarga tikkan,
Temuriy qizdirman, Xonzoda qizman!

Degan satrlaridan bilsa ham bo‘ladi, u juda navqiron, go‘dakfe’l va be‘g‘ubor, shu bilan birga sarkardalik ruhiyatiga ega o‘ktam qiz edi. Sportning karate turi bilan shug‘ullanar edi. Barchinmonand edi, rahmatli.

Anorday kesilib qonab borar qalb,
Diydor malhamini surgali keldim.
Hayot – beshafqat jang boshlasa, qo‘rqma,
Bir umr yoningda turgali keldim.

Xonzodamizning mana shu satrlari uning aynan badiiy suvrati edi. U mehrga to‘lib ketgan toshqin qizaloq edi, nafis qizg‘aldoq, kapalakcha edi. O‘limi kunlari butun internet olami uning qayg‘usi bilan to‘lib ketgandi…

…Xulosa o‘rnida, Xonzodabegim Jamolovaning ushbu kitobini chop etish tashabbusi uchun barcha adabiyot homiylaridan, xususan Bekobod tumani hokimi Z.Nizomiddinovdan juda xursand bo‘ldim. Ushbu xayrli ishga bosh qo‘shgan barchaga rahmat! Xalqimizning shunday she’rsevar, shoirparvarlari ko‘paysin.

Xonzodamga aytarim esa: Olam yuzini ko‘rgan ushbu kitobing bizga ham, senga ham muborak bo‘lsin! Diydoring va she’rlaring ruhimizda yashayapti, yashaydi ham. Ruhing oromda bo‘lsin, qizaloq!

Guljamol ASQAROVA,
Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori,
“Shuhrat” medali sohibasi



KELDIM

Ey do‘st – dil mulkimga yaqin, qadrdon,
Ko‘nglingni ziyorat qilgali keldim.
Ko‘ksimda xavotir tushdi nogahon,
Yuraging omonmi, bilgali keldim?!

So‘zingni, ko‘zingni, o‘zingni, ey do‘st,
Kechikib, ichikib ko‘rgali keldim,
Dilbuloq keltirdim mehrga tashna,
To‘kilgali keldim, to‘lgali keldim.

Anorday kesilib qonab borar qalb,
Diydor malhamini surgali keldim.
Hayot – beshafqat jang boshlasa, qo‘rqma,
Bir umr yoningda turgali keldim.

Bir boshga ming savdo soladi taqdir,
Yelkangga bosh qo‘yib ko‘ngali keldim.
Neki dard bermasin, qayg‘u bo‘lmasin
“Do‘stim, men borman-ku!”, degali keldim.

Ey do‘st – dil mulkimga yaqin, qadrdon,
Ko‘nglingni ziyorat qilgali keldim.
Ko‘ksimda xavotir tushdi nogahon,
Yuraging omonmi, bilgali keldim?!

ISYONKOR

Dod dedim, shu kecha dod, dedim,
Tushun, ey odamizod, dedim.
Isyonkor shamollar elchidek,
U endi hijrondan shod, dedim.

Avvalim, oxirim, zohirim.
Ko‘ksimga muhabbat o‘qlarin,
Bexato qadagan mohirim,
Bir dardlar ichinda tentisam,
Oshiqqa baxt-mukofot, dedim.

Yursam-u, yo‘llardan gul unsa,
Men boqsam, ko‘zlaring nur bo‘lsa,
Va senga eltar bir yo‘l bo‘lsa,
Tangrim deb O‘ziga yolvorsam
Baxtlarga to‘lsaydi xotirim.
Avvalim, oxirim, zohirim!

Ko‘klamlar ko‘z ochar ko‘nglimda,
Bodomzor bildirar ishq sirin.
Ko‘ksimda she‘r hidi gupurar,
Hislarim – binafsha, nastarin…

Yuz boshli ayriliq kelodir,
“Hijron!” deb o‘kirib, baqirib…
Quturib, o‘kirib, ayqirib…
Kel, meni qutqar, ey botirim –
Muhabbat – avvalim, oxirim…

XONZODAMAN

Men qanday qiz?
Burgut ko‘zlarin o‘pib,
Olovlar labida raqs tushgan oqqush.
To‘qson bor yiqilib, yuz bora turib,
Yiqilib-yengilib maydon tuqqan kuch.

Tug‘ildim osmonday erka ruh bilan,
Bag‘rida ulg‘ayib quyoshistonning.
Yuksak marralarga eltar kuchim bor,
Yelkamda opichlab O‘zbekistonni.

Ruhimda To‘maris qilich o‘ynatib,
Yovning ko‘zlariga soladi g‘ulu.
Magar jangda bayroq ko‘tarsam sen deb,
Yursam qadamimdan qo‘rqadi qo‘rquv.

Ko‘nglimki, gullarga egiz yaralmish,
Nazmiy iforlarga oshufta bog‘man.
Sel kelsa, kiprikning safi-la to‘sib,
Ko‘ksi o‘qlar tutgan qoyaman, tog‘man.

Ortimdan ergashib yuradi osmon,
Hali kashf qilinmagan tillarang so‘zman.
Hurriyat deb umrini sulhlarga tikkan
Temuriy qizdirman, Xonzoda qizman.

BAXT TONGI

Bu tong bir ishq tug‘ilmish, birodar,
bir shirin, bir toza, bir ozod.
Ruhimni eltadi O‘ziga
Ishq – qanot!
Yellarning sochlarin tortqilab
Qushchalar salavot aytadi,
Sog‘inchrang ko‘ylakda ko‘nglingga
Baxt qaytadi!
Labimdan toshadi so‘zlarim,
Men aytsam, yuz aytdim, ming aytdim.
Sarsari yillarning bag‘riga
She’r bo‘lib qaytdim!
O, bu tong!
Bulutni quchoqlab yozaman,
So‘zlardan arg‘umchoq yasaydi,
Ko‘nglimning eng olis yerida,
Sen bilmas chaqmoqlar yashaydi.
Bu tong bir ishq tug‘ilmish, habibim,
Ming yillab kutgani bu dilning,
Pichirlab yig‘layman ko‘nglimga
Xush kelding!
Xush kelding!
Xush kelding!

YASHAYAPMIZ

Men sensiz-u, sen mensiz,
Yashayapmiz bilgancha.
Kimning qalbi o‘rtanib,
Kim bag‘rini tilgancha.

Yer aylanar bamisli,
Bizga teskari, dalli.
Yo‘llar bizni ayirar,
Sog‘inchim oshgan sari.

Boshimizga keldi dard,
Bemavrid hijron keldi.
Senga qanday bilmadim,
Menga ko‘p yomon keldi.

Sog‘inchning kosasidan,
Bir talx boda ichdim.
Hasrat bilan uchrashib,
G‘amlar bilan tanishdim.

Ismingni tonglarimdan
Olib ketdi qaqnuslar.
Qoldim qo‘lim cho‘zgancha,
Zor yig‘ladi sof hislar.

Yelkamni ezdi sog‘inch,
Ko‘zimni yoshlayapman.
Sen ketgan shu yo‘llarga
Termulib yashayapman...

Sahifani Mirzabek Sherbekov tayyorladi.

Mutolaa

OSAMU DAZAINING “INSONLIKDAN MOSUVO” ROMANI HAQIDA

Inson moddiyatdan ko‘ra ko‘proq ruhiyatdan iborat ekani allaqachonlar isbotini topgan narsa. Buni yapon yozuvchisi Osamu Dazai hayoti hamda uning yozganlari misolida ham ko‘rish mumkin.

U o‘sha davrda yapon jamiyatining aristokrat oilasida tug‘ilgan. Puldan, yeb-ichishdan muammosi bo‘lmagan. Uyi xizmatkorlarga to‘la, istagi muhayyo edi. Oiladagi 11 farzandning biri bo‘lishiga qaramay shuncha odam orasida, afsuski, yolg‘iz ulg‘ayadi.

U vaqtining ko‘p qismini uy xizmatchilari bilan o‘tkazgan va uni asosan ular katta qilishgan. Otasi har doim siyosiy karyerasi bilan band, onasi esa muttasil kasal bo‘lgan. Shu sabab Dazai uchun ota-ona mehri va ular bilan yaqin munosabatda bo‘lish har doim eng katta orzulardan biri edi.

Moliyaviy imkoniyatlariga qaramasdan u har doim o‘zini baxtsiz, yolg‘iz his etgan. Davomiy depressiya bilan kun kechirgan. Uning qayg‘usi shu darajada quyuqki umri davomida 5-6 marta o‘z joniga qasd qilgan. Va negadir deyarli hammasida o‘zini daryo yoki dengizga, suvga tashlagan.

Yana o‘z joniga suiqasd paytida doim yonida kimdir bo‘lgan. Kimnidir (asosan sevgan qizlarini) birga o‘lishga ko‘ndirgan. U yolg‘izlikdan shu qadar qo‘rqqanki hatto yolg‘iz o‘lishni ham istamagan.

Har safar o‘z joniga qasd qilib omon qolgach bir asar yozgan. O‘sha jarayonni biroz syujetga solib dard-alami, qayg‘usini qog‘ozga tushirgan. Balki shu orqali o‘zini yengillatgandir, yengillatishga uringandir.

Uning ana shunday kechmishlari, tuyg‘ulari to‘kilgan eng mashhur asari “Insonlikdan mosuvo” romanidir. U asarida tuyg‘ular qanchalik muhimligi, yolg‘izlik va tashlandiqlik hissini hech ne moddiyat bilan eritib bo‘lmasligini va bunda pulning hech qanday o‘rni yo‘qligini chiroyli ochib bergan. Yagona foyda beradigani, qalbga malham bo‘ladigani mehr, tushunish, sevgi deydi u…

“Insonlikdan mosuvo” asarining eng asosiy va ta’sirli jihatlaridan biri bu qahramonning ichki “men”i bilan tashqi dunyo, ya’ni jamiyat o‘rtasidagi keskin, va og‘riqli to‘qnashuvidir.

Asar qahramoni Yodzo jamiyat tomonidan o‘rnatilgan normalarni, qadriyatlarni va insonlar orasidagi muloqot shakllarini qabul qilishga qiynaladi. U atrofdagilar kabi bo‘lishni, ular bilan yaqinlikni istaydi, lekin uning harakatlari bilan ichki holati bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi va asar aynan shu nomutanosiblik ustida quriladi.



Yozuvchining mahorati shundaki, Yodzo jamiyatni inkor qilmaydi, unga qarshi ham chiqmaydi aksincha, u jamiyatga moslashishga harakat qiladi. Lekin har bir urinish uni yolg‘izlik botqog‘iga chuqurroq botiraveradi.

U boshqalarga quvnoq, hamma narsadan xabardor, beg‘ubor inson sifatida ko‘rinishga harakat qiladi. Ammo ongiga har doim “Men bu dunyoga mos emasman” degan og‘riq sanchilib turadi.

Dazai o‘rtaga “Inson o‘zi nega jamiyatga mos bo‘lishi kerak?” degan savolni qo‘yadi. Yodzo bu savolga javob topolmaydi. Shuning uchun ham u jamiyatga emas, o‘ziga qarshi kurashadi. O‘zini o‘zgartirishga urinadi. Aslida asarning butun dramatizmi ham mana shunda.

Shu sababli bo‘lsa kerak “Insonlikdan mosuvo”ni o‘qigan aksar kitobxonlar asarni unita olishmaydi. Chunki undagi savollar, o‘zlikni topishga intilishlar o‘quvchining ichida davom etadi.

“Insonlikdan mosuvo” romanining, umuman olganda Dazai uslubining boshqa psixologik asarlardan ajratib turadigan eng kuchli jihatlardan biri bu undagi ruhiy iztirobning bezatilmasdan, parda ortiga olinmasdan, haqiqatning bor og‘rig‘i bilan tasvirlanishi bo‘lsa kerak.

Yodzo ichidagi bo‘shliqni yashirish uchun kulgidan, hazildan, kino va shunga o‘xshash vositalardan foydalanadi. Uning bu ruhiy holati tartibli, dramatik yoki poetik emas. Aksincha chalkash, og‘riqli, tartibsiz va boshqarib bo‘lmaydigan bir jarayon.

Shu sababli, kitobni o‘qiyotgan odam qahramonni chetdan kuzatmaydi. Balki u bilan birga ruhiy iztiroblarni his qiladi. Xuddi Yodzo kabi chalkash tuyg‘ular va nihoyasiz yolg‘izlik qariga tushib qoladi. Kitobni dunyo bo‘ylab mashhur qilgan ham ayni shu jihati deb o‘ylayman.

“Insonlikdan mosuvo”ni boshqa asarlardan ajratib turadigan yana bir jihati uning avtobiografik nuqtalari ko‘pligidir. Osamu Dazai qahramon Oba Yodzo orqali shunchaki badiiy syujet yaratmaydi, balki o‘zining hayoti, ruhiy iztiroblari, jamiyatdan begonalashuvi va ichdan evrilib ado bo‘layotganini ogʻriqli darajada samimiy aks ettiradi.

Ko‘pgina yozuvchilar o‘z iztiroblarini badiiy bezak bilan to‘ldiradi. Ammo Dazai bunday qilmaydi. U o‘z hayotini qahramon maskasi ostida emas, balki “bu men” degan ochiq e’tirof tariqasida bayon qiladi. Natijada, kitob o‘qilganda adabiy asar bilan emas, balki jonli insonning ruhiyati bilan tanishgandek bo‘lasiz.

Qisqa qilib aytganda “Insonlikdan mosuvo” romani o‘quvchini ruhiy, falsafiy va insoniy teranlik sari yetaklaydi. Qahramonning jamiyat bilan moslasha olmasligi — bu shunchaki ijtimoiy muammo emas, balki insonning o‘zligini yo‘qotib qo‘yish jarayonidagi ichki fojia deydi Dazai.

“Insonlikdan mosuvo” qisman bo‘lsa-da siz va mening ham iztiroblarimizni, o‘y-fikrlarimizni ochib beradi. Shuning uchun ham bu asarni qaysidir ma’noda biz haqimizdagi kitob deyish mumkin. Siz ham bu kitobni o‘qib ko‘ring. Asarning qaysidir qismlaridan o‘zingizni topishingizga ishonaman.

Muhiddin NIDO

Yangi kitob-albom

ADABIYOT VA HAYOT



Mustaqillik yillarida o‘zbek fotografiyasi taraqqiyotida chindan yangi sahifalar ochildi. Endilikda fotoijodkorlarimiz uchun chinakam erkin ijod qilishlariga katta imkoniyatlar yaratib berildi. Natijada, tomoshabinga estetik zavq beradigan, unda teran fikr uyg‘otadigan badiiy suratlar dunyoga kelmoqda. Albatta, voqelikni tarix sahifalariga muhrlashda fotosan’atning o‘rni beqiyos. Bugun ushbu yo‘nalishda ijod qilayotganlarning harakatlarini kuzatib, ularning mazkur kasbni nechog‘lik puxta egallashganiga amin bo‘lasan, kishi. Ular turli ko‘rgazmalarda faol ishtiroki bilan O‘zbekistonning zamonaviy fotosan’ati galereyasini boyitishga munosib hissa qo‘shmoqda. Ayni paytda fotorassomlarimiz ijodida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, bunyodkorlik ishlari, yurtdoshlarimiz qalbidagi shukronalik, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhi o‘z ifodasini topgan. Bugunning fotorassomi davrga mos tarzda Yangi O‘zbekiston obod manzillarini badiiy tasvirlashda ijodiy izlanmoqda.

Serqirra ijodkor Sultonboy Dehqonov ana shunday mahoratli fotorassomlarimizdan biridir. Jurnalist, ham fotorassom sifatida yurtimiz bo‘ylab ko‘plab ijodiy safarlarda bo‘lib, go‘zal diyorimizni madh etuvchi shaxsiy ko‘rgazmalar o‘tkazib, tomoshabinlar e’tiborini qozongan. Qalbi ochiq inson sifatida nihoyatda kamtarin, ijodda tasavvur olami boyligi, samimiyligi va lirik kayfiyatga ega ekanligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Uning yangicha badiiy yechimga ega fotoasarlari muxlislarda katta qiziqish uyg‘otadi. Ayniqsa, Fotosan’atning portret, peyzaj, etyud janrlaridagi asarlarida o‘zining ona tabiatga, hayotga munosabatini jo‘shqin hissiyot bilan ifodalaydi.

Muallif kelgusida nur va soya chizgilari orqali yanada yorqin, tomoshabinda hayrat uyg‘otadigan badiiy asarlar yaratishiga ishonamiz.

Akmal NUR,
O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi,
O‘zbekiston xalq rassomi, akademik

Yangi loyiha

Hurmatli gazetxonlar! Sizlarning e’tiboringizga bugungi sondan boshlab, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, doimiy hamkorimiz Obiddin Mahmudov boshchiligida shakllantirilgan “Kun hikmati” va “Nodir ovozlar” loyihalarini taqdim etamiz.

Kun hikmati

Nodir ovozlar

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz: "Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi 7013.
Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
"NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. "Mash'al" mahallasi, Markaz -1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497